Инсонлар ўз нутқида қарғишлардан қўп фойдаланишади. Баъзи инсонлар учун бу оддий ҳолатга айланиб қолиши мумкин:

- Нега бундай қиласизлар? Онангниям боғлаб қўймаган-ку. Эрта бир кун қарисанглар, онангнинг куни бошларизга тушишидан қўрқмайсизларми?
- Онам юришдан қолиб, ҳаммани қарғайдиган бўлдилар, ҳамманинг дилини оғритадилар. Ҳаммадан норози, хатто худониям қарғайдилар, шукур қилишни



билмайдилар. Худойим онамга жазо беришда адашибилар. Тилларини олиши керак эди...

Қарғиш маълум вазиятда инсоннинг ўзининг салбий эмоцияларини чиқариш зарурияти билан реаллашади. Аммо жаҳл устида айтилган қарғиш ўзига ҳам таъсир қилишини ўйлашмайди. “Сўнгги пушаймон ўзингга душман” деган мақол ҳақиқатдан ҳаётдан олингандиги қуидаги мисол орқали ҳам кўринади:

Инобат опа дийдиёси ўтмай қарғашга ўтганди Хондамир биринчи марта онасига қаттиқ гапирди:

- Рози бўлмасангиз бўлманг. Майли қўкармай бир умр. Била қўрмай ўтай. Аллоҳ жазойимни бериб 40 дан ўтмай ўлиб кетай розиман. Сиз нима десангиз шу она. Сизни хаққингиз кўп менда. Айтганингиз келсин. Аммо бирори боласини қўшиб қарғаманг. Унда ҳаққингиз йўқ қарғишингиз ўзингизга қайтади.

Инобат опани юраги шув этди. Ўзини қарғагани билинмас экан. Ўғлини ўзи ҳақида айтган гаплари юрагини тешиб ўтди. Ичиди “Тавба қилдим астағфируллоҳ” деб кўйди.

Кўринадики, “қарғишининг икки учи бор” деб айтган халқ қарғишни ишлатишга эҳтиёт бўлишни, унинг бир учи ўзига ҳам қайтиб тегиши мумкинлигини огоҳлантиради:

Баъзан ўйлаб қоламан, инсонлар қандай қилиб бунчалик ваҳший бўлиши мумкин?! Ёмғирда эримнинг кўп қаватли уйи олдида турганим кечагидек ёдимда. Ўшанда дилим шу қадар ўғриганки! Бир ёшли қизимни бағримга босиб, эримни қарғадим! Шунчалик қарғадимки, бақириб-бақириб, хўрлигим келиб қарғадим. Эрим эса деразаси пардасини ёпиб, чироғини ўчирди... Бир хафта ўтар-ўтмас эса қизолоғим баданида оқ доғлар пайдо бўлди. Бунга эса менинг қарғишим сабаб! “Қарғишининг икки учи бўлади. Бири, албатта, ўзингга уради”, деган гапга жуда ишонаман. Балки, менинг ҳам қарғишим ўша пайт боламга урганмикин?..

Қарғиш инсоннинг руҳига, жисмига, оиласи-ю бола-чақасига заарар етказиши мумкин. Қарғишидан қўрқиш керак. Айниқса, етимнинг, мазлумнинг, фақирнинг қарғишидан.

У аёл:

- Опа, сўзларингизни эшитиб биласизми, нима хаёлимга келди. Сиз Аллоҳнинг қайсиdir жудаям суюкли бандасини дилини оғритгансиз. У шу даражада яхши инсонки, хатто сизни қарғамаган ҳам. Мана шуниси энг ёмони. Қачон бир банда иккинчисини дилини оғритса-ю, иккинчиси индамаса, Аллоҳга ҳавола қилиб кетса, бундан ёмони йўқ. Ўша одамнинг қасоси Аллоҳнинг зиммасига вожиб бўлиб тушади. Бу эса энг шиддатли жазо бўлиб қолади, - деди.



Ўзбек лингвокультурологиясида шундай феномен борки, уни антиқарғиши деб аташимиз мумкин. Ўз нутқида аёлларимиз кўпроқ антиқарғишидан фойдаланади. Антиқарғишида мазмун ва шакл номутоносиблиги намоён бўлади. Антиқарғишилар мазмун жиҳатдан ижобийликни билдирыса, шаклий жиҳатдан салбий тилаклар билдирадиган воситалар орқали ифодаланади. Антиқарғишилар тузилиш жиҳатдан икки хил бўлади:

1. Антиқарғиши матни тўла ижобий ҳолатда бўлиб, фақат интонация орқали қарғиши услубида талаффуз қилинади.
2. Антиқарғиши матнидаги феълнинг бўлишсиз шаклда қўлланиши орқали юзага чиқади.

Антиқарғиши матни тўла ижобий ҳолатда бўлиб, эзгу тилакни билдиради, лекин қарғиши услубидаги интонация билан талаффуз қилинади ва грамматик воситалар орқали шаклланади. Муҳаммад с.а.в. дан шундай ҳадис бор: Бурнинг ерга тегсин. Ушбу матн қарғиши предикати қабул қиласидиган буйрак-истак майлидаги -син аффиксини олиб келган. Мазмун жиҳатдан бурнинг ерга ишқалансин, ерпарчин бўл, калтак еб ер билан яксон бўл деган қарғишига яқин туради. Лекин матн мазмун жиҳатидан эса ижобийликни билдириб, намоз ўқи, сажда қил, бурнинг ерга тегсин деган маънони билдиради. Шундай гўзал қарғишилардан яна бири:

Бир сахрои аёлнинг,

Ўғилчаси шўх экан.

Ундан зарар кўрмаган,

Бирор куни йўқ экан.

Қозондаги таомин ,

Тепиб қочиб кетаркан.

Мешидаги сувини ,

Сепиб қочиб кетаркан.

қарғар экан боласин ,

Қилолмасдан эпини.

Қирқиб қочганида кир

Ёядиган ипини-

" Хой , ипимни қирқмагин,

Қалбинга илм тўлгур.



Хой, мешимни тешмагин,

Каъбага имом бўлгур.

Сичкон думин кесмагин,

Беозор бўл, тўғри юр.

Ғаріб йўлин тўсмагин,

Каъбага имом бўлгур".

Демас экан " Жувонмарг",

"Хароми" , "Мараз" , "Ўлгур".

Битта экан қарғиши -

" Каъбага имом бўлгур!".

Ният кетди , вақт ўтди,

Мисли ел , ё шабада.

Шу онанинг , шу ўғли,

Имом бўлди Каъбага.

Не шоху , не султонлар ,

Орқасидан туриб ғоз.

Унга иқтидо қилиб,

Ўқир эдилар намоз.

Дуо-ла шум боладан,

Чиқди бир хуш нафасли

Олим , хофизи Қуръон-

Абдураҳмон Судайсий.

Назоратда инсоннинг,

Ҳар сўз , ҳар бир нафаси.

Ибрат бўлсин бизга бу,

Аллоҳнинг мўъжизаси.

Комил инсон , кўрдингми,

Марҳабо , билки улар-

Ота-она элидан , Дуо олган болалар!



Биринчи типдаги антиқарғышларга яна қуийдагиларни келтириш мүмкін: Хизрга ошно бўлгур, уйинг буғдойга тўлгур//уйинг донга тўлгур, қалбингга илм тўлгур, калланг ўскур, кўзинг нурга тўлгур, бой бўлгур, ақлинг кўпайгур, хушингга хуш кўшилгур, инсофли бўлгур, ҳалол бўлгур, подшоҳ бўлгур, бор бўлгур каби.

Масалан,

“Хой ўзингдан кўпайиб, бой бўлгурлар! Бир пас сабр қилсаларинг тутни ювиб бераман. Чанг-чунг билан оғзиларингга солиб, бир нимани бошламаларинг. Қорин оғриғига учрасаларинг мени куйганим мйлику-я, сенларнинг жонинг оғригани ёмондан-ёмон” – дея беозор койиган бўламан.

Бундай антиқарғышларни ёши катталар болаларга нисбатан ишлатади. Демак, биринчи типдаги антиқарғышларни кўпроқ ёши катталар болаларга нисбатан ишлатишиади.

Иккинчи тип антиқарғышларга матндағи предикатни бўлишсиз шаклида ишлатилиши орқали ясалади. Масалан,

Шу пайт Раҳматилланинг бошига тарс этиб тарсаки тушди. Раҳматилла Салимга қараб чийиллади:

- Ээ манга қўл кўтарган қўлларинг акашак бўлмагур...

Кўринадики, бундай антиқарғышлар кўнгилга яқин инсонларга қараб айтилади.

- Йўқ, - деди хотини, кейин “вой ўлмасам, шоколадни қизингиз ебди. Дилбар, қуриб кетмагур, тур ўрнингдан”, деган овоз эшитилди.

Ушбу мисолда ҳам қуриб кетмагур предикати -ма бўлишсизлик аффиксини олиб, ижобий маъноди ифодалаш учун ишлатилаяпти.

Иккинчи типдаги қарғышлар -ма бўлишсизлик аффиксини олиб, бўлишли-бўлишсизлик зидлигига киришади ва салбий маъно ижобий маънога айланади.

Масалан, ер ютгур – ер ютмагур;

жувонмарг бўлгур - жувонмарг бўлмагур;

ажаллагур – ажалламагур;

узилиб тушсин - узилиб тушмасин;

қабр ютсин - қабр ютмасин.

Аммо хоҳлаган предикатга -ма аффиксини қўшиб бўлмайди. Масалан, солиштиринг:

бети қурсин - бети қурмасин (бундай ишлатилмайди);

бўйи лаҳадда чирисин - бўйи лаҳадда чиrimасин (бундай ишлатилмайди).



Демак, антиқарғышлар катталарнинг болаларга ва қўнгли яқин кишиларга нисбатан ишлатилади. Антиқарғышлар яхши дуо, яхши тилакни билдиради. Аммо қарғышларга хос интонация билан айтилади.

REFERENCES

1. Xamidovna, M. I. (2022). THE MAIN CRITERIA FOR THE DEVELOPMENT OF CONFLICT PSYCHOLOGICAL TRAINING PROGRAMS. INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429, 11(06), 181-184.
2. Xamidovna, M. I. (2022). OILADA O'SPIRINLARDAGI NIZOLARNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI. Ta'lim fidoyilari, (Special issue), 11-14.
3. Ahmedova, H. T. (2022). Yusuf Khos Khojib oriental pearl. Zien Journal of Social Sciences and Humanities, 9, 44-45.
4. Tursunovna, A. H. (2022). Makhmud Kashgari's Role In The Art Of Public Speech. Journal of Media, Culture and Communication (JMCC) ISSN: 2799-1245, 2(01), 14-17.
5. Ahmedova, H. T. (2021, January). THE PLACE OF TEACHER'S SPEECH IN THE EDUCATIONAL PROCESS. In Euro-Asia Conferences (Vol. 1, No. 1, pp. 212-214).
6. Abdulkhafizovna, M. M. (2021). PECULIARITIES OF METHODS OF PEDAGOGICAL PSYCHOLOGY. Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning, 2(10), 1-4.
7. Ashurova, G., Meliqo'ziyeva, M., & Karimova, S. (2019). REFORMS IN THE FIELD OF PRESCHOOL EDUCATION. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol, 7(12).
8. MUKHTASAR, I., & MAVLUDA, M. The Study of Projective Methods in Psychology. JournalNX, 7(02), 66-69.
9. Расулова, М. Х. (2019). Задача современной высшей школы-научить студентов размышлять. In Молодежь и наука: реальность и будущее (pp. 463-464).
10. Расулова, М. Х. (2017). Инновационные технологии в экологическом воспитании. In Молодежь и наука: реальность и будущее (pp. 302-305).
11. Расулова, М. Х. (2016). Опыт применения метода проектов при обучении русскому языку. In Молодежь и наука: реальность и будущее (pp. 327-329).
12. Расулова, М. Х. (2018). Прием обратной связи на уроках литературы. In Молодежь и наука: реальность и будущее (pp. 554-555).



13. Расулова, М. Х. (2016). Проектная работа на занятиях по русской литературе. In Молодежь и наука: реальность и будущее (pp. 329-330).
14. Расулова, М. Х. (2015). Нравственное мерило в русской литературе. In Молодежь и наука: реальность и будущее (pp. 339-340).
15. Расулова, М. Х. (2015). "Идейность" безыдейной литературы. In Молодежь и наука: реальность и будущее (pp. 338-339).
16. Khamzaevna, R. M. (2020). Linguistic features of the novel "New Moscow Philosophy" by V. Pyetsuh. International Journal of Research, 7(3), 198-201.
17. Inamovich, R. I. (2021). The Concept of "Community/World" in the Linguistic and Cultural Aspect. Middle European Scientific Bulletin, 16.
18. Расулов, И. И. (2017). Фразеологизмы со значением темпоральности в русском и узбекском языках. In Молодежь и наука: реальность и будущее (pp. 219-221).
19. Расулов, И. И. (2017). Фразеологические особенности языка художественного произведения. In Молодежь и наука: реальность и будущее (pp. 221-223).
20. Расулов, И. И. (2021). Фразеологические единицы русского и узбекского языков со значением качественной оценки лица. In Система непрерывного филологического образования: школа–колледж–вуз. Современные подходы к преподаванию дисциплин филологического цикла в условиях полилингвального образования (pp. 420-423).
21. Расулов, И. И. (2018). О фразеологизмах с предлогами обстоятельственной семантики. In Молодежь и наука: реальность и будущее (pp. 346-347).
22. Расулов, И. И. (2020). Вопросы изучения наречных фразеологизмов в русском и узбекском языках. In Система непрерывного филологического образования: школа–колледж–вуз. Современные подходы к преподаванию дисциплин филологического цикла в условиях полилингвального образования (pp. 320-323).
23. Расулов, И. И. (2015). Из опыта изучения семантической структуры фразеологизмов. In Молодежь и наука: реальность и будущее (pp. 343-345).
24. Расулов, И. И. (2015). Глагольные категории причастий узбекского и русского языков. In Молодежь и наука: реальность и будущее (pp. 341-342).
- 25.



SANOAT KORXONALARIDA ISHLOVCHI XODIMLARNI NOQULAY TASHQI MUHIT TA`SIRIDAN SAQLOVCHI MAXSUS POYABZALLARDA PIEZO ELEMENTLARNI QO`LLASH IMKONIYATLARI TAHLILI

Dotsent Yu.A. Maxmudov

(Toshkent to`qimachilik va yengil sanoat instituti)

ANNOTATSIYA

Maqlada piezo elementlarni poyabzal ostki detallarida qo`llash imkoniyatlarini tahlil qilish maqsadida xalqaro hamda mahalliy ilmiy izlanuvchilar olib borgan tadqiqot ishlari hamda patentlar tahlil qilinib, piezo elementlarning maxsus poyabzallarda qo`llash imkoniyatlari aniqlangan.

Kalit so`zlar: Piezo element, krisatal panjara, elektr energiyasi, fazalar farqi, impuls, diod kopriki.

Maxsus poyabzallar oyoq panjasini nafaqat ob havo va atrof muhitning zararli tasirlaridan, shuningdek ishlab chiqarish sharoitida vujudga kelishi mumkin bo`lgan turli mexanik shikastlanishlardan, havfli suyuqliklardan, chang va ifloslantiruvchi moddalardan, tebranishdan, yuqori yoki past haroratdan va boshqa turli ta`sirlardan himoya qilishi hamda foydalanuvchiga qulay bo`lishi ham talab etiladi (1-rasm).



1-rasm Ishlab chiqarish korxonalari uchun maxsus poyabzallar

Ishlab chiqarish korxonalari uchun maxsus poyabzallar issiqlik o`tkazuvchanligi past bo`lgan materiallardan tayyorlanishi lozim bo`lib, past haroratlarda ishlovchi korxonalarda yoki qish oylarida oyoqni sovuq havodan himoya qilishi lozim. Shuningdek yuqori haroratda ishlovchi korxonalarda esa maxsus poyabzallar thermoconductive ya`ni issiqlikdan himoyalash hususiyatiga ega bo`lishi maqsadga muvofiq


Sanoat korxonalarida sovuq iqli sharoitida oyoq panjasini sovuqdan himoya qilish dolzarb masala hisoblanib, oyoq panjasini muzlashi yoki sovuq qotishi inson organizmida shamollash, qon aylanishining buzilishi, mushaklar tortishib qolishi va boshqa ko`plab jiddiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Bu esa poybazzallarning sovuqdan himoya qilish xusuiyatini takomillashtirishni talab etadi. Hozirgi kundagi qishki poyabzallarni sovuqdan himoya qilish xususiyati asosan uning konstruksiyasi va qo`llaniladigan materiallar



xususiyatiga bog`liq bo`lib, inson tanasining tabiiy issiqligi asosiy manba bo`lib kelmoqda. Oyoq panjasini doimiy isitishni ta`minlashdagi asosiy muammo uni elektr energiyasi bilan ta`minlashdagi qiyinchiliklar hisoblanadi. Chunki poyabzal konstruksiyasi ixcham bu esa poyabzal konstruksiyasida elektr generatorlarni qo`llashga imkon bermaydi. Lekin hozirgi kunda piezo elementlar asosida elektr energiyasini ishlab chiqarish va poyabzalni isitish uchun sarflash imkoniyatlari tadqiq etilmoqda.

Piezo elementlar asosida elektr energiyasini ishlab chiqarish imkoniyati birinchi marotaba 1880 yil aka uka Jekson va Pyerom Kyurilar tomonidan aniqlangan. Piezo effekt bu bir nechta keramik kristallarning mexanik deformatsiyasi natijasida ularni elektr maydon hosil qiladi va uning kuchi unga ta`sir etayotgan kuchga to`gri proporsional bo`lib, deformatsiya natijasida elektr toki hosil bo`ladi. Piezo elementlar sifatida PbTiO₃, BaTiO₃, LiNbO₃ kabi kristal panjara tuzilishiga ega moddalar ishlatilinishi mumkin.

Piezo elementning ushbu hususiyatini poyabzal tag detalida qo`llash imkoniyati bo`yicha ilmiy izlanishlar olib borilgan bo`lib, 19.06.2020 sanasida Rossiya Federatsiyasi tomonidan berilgan RU 198 140 U1 sonli “Oyoq panjasini isituvchi qurilma” foydali model uchun patent berilgan.



2. rasm. Piezo elementli oyoq panjasini isituvchi patak.

Ushbu taklif etilayotgan modelda elektr energiyasini ishlab chiqarish uchun pyezo elementlar 2 3oyoq panjasining tovon va kaft qismlariga joylashtirilgan bo`lib, harakat davomida hosil bo`ladigan bosim kuchi ta`sirida elektr energiyasi ishlab chiqaradi. Ushbu energiya 4 akkumulyatorda saqlanib, 1 oyoq kaft barmoq qismini isitish uchun isituvchi elementga uzatiladi.

Ushbu modelni tahlil qilish orqali quyidagilarni aniqlandi.

Piezo element patakning turli yuzalarida joylashganligi tufayli ularning elektr toki impulse hosil qilish vaqtি turlicha bo`ladi. Natijada esa olinishi mumkin bo`lgan energiya quvvati pasayishi kuzatilishi mumkin.

Ushbu impluslar fazalari farqi natijasida elektr energiyasidan yuqotishlar kuzatilishi mumkin va bu energiyani to`plash imkoniyatini cheklaydi. Shuning uchun piezo elementlardan iborat elektr manbayiga quydagi sxemani ulash maqsadga muvofiq hisoblanadi.



1-sxema. Piezo element quvvatini saqlash uchun elektr sxemasi.

- 1) Tashqi mexanik ta`si sir natijasida piezo element elektr energiyasini ishlab chiqaradi.
- 2) Ishlab chiqilgan energiya impuls ko`rinishida bo`lganligi sababli diod ko`priki yordamida uni to`g`irlandi ya`ni doimiy tokga aylantiriladi.
- 3) Kuchlanishni tartibga solish uchun kondensatorдан foydalanildi.
- 4) Chiqishda litiy ionli akumulyatorlar yordamida elektr energiyasi yig`iladi.
- 5) To`plangan elektr energiyasi isituvchi elementga uzatiladi.

REFERENCES

1. Постановлению Президента Республики Узбекистан от 3 мая 2018 года № ПП- 3693, О мерах по дальнейшему стимулированию развития и роста экспортного потенциала кожевенно-обувной и пушно-меховой отраслей.
2. Устройство генерирования энергии Пат RU 126 907 U1 Россия, 660100, г.Красноярск, а/я №28746, КРАСПАТЕНТ, патентное бюро, О.Э. Яфаровой 2012142986/12, Заявл 08.10.2012; Опубл 20.04.2013
3. Vazquez-Rodriguez, M & Jiménez, F & De Frutos, J. (2012). Modelización de materiales piezoelectrinos como generadores de energía. Boletín de la Sociedad Española de Cerámica y Vidrio. 51. 25-36. 10.3989/cyv.052012
4. M.Zhy,S. Edkins, Analytical modelling results of piezoelectric energy harvesting devices for self-power sensors/sensor networks in structural health monitoring / Procedia Engineering, 25, 195-198. 2011



ЎЗБЕКИСТОНДА БЮДЖЕТ МАБЛАГЛАРИ САРФЛАНИШИДА ФУҚАРОЛАР ИШТИРОКИ

Хамидов Хабибулло Хикматулла ўғли

Молия вазирлиги Давлат бюджети департаменти бош иқтисодчisi,
Ўзбекистон Республикаси Тошкент шахри.
e-mail: hhamidov@mfp.uz / hamidov93.93@mail.ru

Аннотация. Уибу мақолада Ўзбекистонда аҳоли турмуш даражасини яхшилаш ва фуқароларни қийнаб келаётган ижтимоий-иқтисодий муаммо ва камчиликларни ҳал этилиши бўйича олиб борилган ишлар, жойларда инфратузилмаларни яхшилаш ҳамда тизимли муаммога айланиб қолган камчиликларни ҳал этишида давлат бюджетидан ажратиладиган маблағлар, маҳаллаий бюджетлар ва давлат дастурлари доирасида ажратилган маблағларни аҳоли учун бугунги кунда энг зарур деб топилган йўналишиларда оқилона ўзлаштирилишида фуқароларнинг фаол иштирок этиши, ҳамда фуқаролар ўз таклифларини (батофсил кўринишида) қолдиришилари ва тегишили таклифларга овоз берииш тизими жорий этилгани ёритилган.

Таянч сўзлар. Ташаббусли бюджет, Очиқ бюджет, Фуқаролар учун бюджет, ахборот портали, давлат бюджети, Ахборот портали, Менинг йўлим.

Ўзбекистон Республикасида сўнги йилларда аҳоли турмуш даражасини яхшилаш ва фуқароларни қийнаб келаётган ижтимоий-иқтисодий муаммо ва камчиликларни ҳал этилиши бўйича бир қатор ишлар амалга оширилиб келинмоқда, жойларда инфратузилмаларни яхшилаш ҳамда тизимли муаммога айланиб улгирган йўл таъмиглаш, ичимлик суви таъминоти, табиий газ ҳамда таълим муассасалари биноларини таъмиглаш каби муаммоларни ҳал этиш энг устувор вазифалармиз бири бўлиб келмоқда.

Юқорида қайд этилган бир қатор муаммоларни бартараф этиш бўйича давлат бюджетидан ажратиладиган маблағлар, маҳаллаий бюджетлар ва давлат дастурлари доирасида ажратилган маблағлар доирасида ҳам ушбу муаммолар тизимли ҳал этилиб келинмоқда.

Мазкур жараёнларда фуқароларни жалб қилиш ва бюджет маблағларини сарфларинишида аҳолининг ўз фуқаролик позицияларидан тўлиқ фойдаланган ҳолда ўзларини қийнаб келаётган ижтимоий муаммоларни ҳал этилишида иштирок этиш яни “Ташаббусли бюджет” механизими ташкил этилди.



Ташаббусли бюджетлаштириш – бу фуқаролар томонидан билдириган таклифларга асосан, уларни ташаббусларини ҳисобга олган ҳолда бюджет маблағларининг бир қисмини тақсимлаш ва ушбу тақсимланган маблағларни фуқаролар томонидан илгари сурилган (ижтимоий аҳамиятга эга) тегишли таклфларга йўналтириш яни молиялаштириш амалиётидир.

Тарихга назар соладиган бўлсак Россия Федерацияси томонидан 1992 йилда ҳар бир фуқаросига 10 минг рубллик ваучер тарқатилган, натижада ҳар бир киши шу суммага teng микдорда давлат мулкига эга бўлган. Иқтисодий сиёsat принципларини асослаб берган **В. Ойкен**, давлат хўжалик – ишлаб чиқариш фаолияти билан шуғулланмаслигини, балки амал қилиш қоидаларини ўрнатиши ва уларни ҳаётга татбиқ этиши кераклигини кўрсатиб ўтади. Давлат тўғридан-тўғри тартиблаш йўли билан ҳал қилиб бўлмайдиган вазифаларини, иқтисодиётга доимо аралашишни ўз зиммасига олмаслиги керак. Бу ерда асосий нарса, **Л. Ерхард** қайд қилиб ўтганидек, давлатнинг иқтисодий фаолияти билан хусусий тадбиркорлик ўртасида оптималь нисбатни топишдир. **Давлатнинг азалий ва бош вазифаси фуқароларга эркин амал қилиш ҳуқуқини берувчи қоидаларни ишлаб чиқишдур.**

Халқаро тажрибага келсак, ташаббусли бюджетлаштириш 1989 йилда биринчи марта Бразилияning Порто-Алегри шаҳрида қўлланилган, маъмурият фуқароларга шаҳар бюджетининг бир қисмини қандай тақсимлаш тўғрисида қарор қабул қилиш имкониятини берди. Бугунги кунда, ўттиз йиллик муваффақиятли амалиётдан сўнг, Порто-Алегри фуқаролари шаҳар бюджетининг **20 фоизини** тақсимлайдилар, маълумот учун юртимиизда 2021 йил 1 июлдан бошлаб жамоатчилик фикри асосида шакллантирилган тадбирларни молиялаштиришга ажратиладиган туман (шаҳар)лар бюджетлари қўшимча маблағларининг энг кам микдорини **10 фоиздан 30 фоизга оширилди**.

Мазкур бюджет амалиётини Ғарбий ва Шарқий Европадаги **20 дан ортиқ давлатлар**, Лотин Америкаси, АҚШ, Хитой, Ҳиндистон, Жанубий Корея ва бошқа кўплаб давлатлар муваффақиятли қўлламоқда.

Жумладан, Ҳиндистоннинг Керала штатида ташаббусли бюджетлаштириш амалиёти 1996 йилда тўлиқ амалга оширилган бўлиб, фуқаролар **24 йилдан кўпроқ вақтдан бери** бюджет жараёнида иштирок этиб келмоқда.

“Ташаббусли бюджет” тизимини юртимиизда ташкил этишда бир қатор ривожланган давлатлар хусусан: Россия Федерацияси, Америка Кўшма Штатлари, Бразилия ва Украина Республикаси каби давлатлар тажрибаси тўлиқ ўрганиб чиқлиди, ўрганишлар натижасида ҳар бир давлатдда макур тизимни амалга ошириш механизми ва норматив ҳуқуқий хужжатлари ўрганиб чиқилди.



Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 22 августдаги ПҚ-3917-сонли “Бюджет маълумотларининг очиқлигини ва бюджет жараёнида фуқароларнинг фаол иштирокини таъминлаш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарорига мувофиқ 2019 йилдан бошлаб Молия вазирлиги томонидан “**Очиқ бюджет**” (www.openbudget.uz) ахборот портали ишга туширилди.

Ушбу ахборот портал орқали фуқаролар:

ташаббусли бюджет жараёнида иштирок этиш учун ўз таклифларини (батафсил қўринишда) қолдиришлари ва тегишли таклифларга овоз беришлари;

давлат бюджети даромадлари ва харажатлари;

маҳаллий бюджет даромадлари ва харажатлари;

давлат ички ва ташқи қарзи;

Республикамизда мавжуд бўлган соҳаларни жаҳон рейтингларида тутган ўрни;

хусусан туман(шаҳарлар) бўйича ажратилган бюджет маблағлари ва уларнинг ижроси тўғрисидаги маълумотларни **тўғридан-тўғри кузатиб боришлари** мумкин.

Шу билан бир қаторда бюджет ташкилотларида фаолият юритувчи ҳодимлар порталдан рўйхатдан ўтган ҳолда ўз **иш хақлари тўғрисида батафсил маълумотларни** реал-вақт қўринишида олишлари ва бошқа бир қатор фойдали имкониятлар ташкил этилди.

Бугунги кунда, “Очиқ бюджет” ахборот портали фойдаланувчилари учун янада қулай бўлиш мақсадида, Молия вазирлиги томонидан ахборот порталининг янги талқини ишлаб чиқилди.

Янги талқиндаги “Очиқ бюджет” ахборот портали маблағларнинг сарфланиши устидан нафақат парламент ва жамоатчилик назоратини, балки фуқаролар бюджет маблағларининг ишлатилишидаги иштирокини оширишга ҳамда Фуқароларнинг жамиятимиз учун худудлардаги хайрли ва долзарб масалаларни ҳал этишга қаратилган ташаббусларини қўллаб-қувватлашда ушбу портал муносиб хизмат қиласи.

Бюджет жараёнига фуқароларни кенг жалб қилиш ҳамда жойларда ахолини қийнаб келаётган муаммоларни айнан фуқаролар ташаббуслари асосида ечимини топиш имкониятини жорий этиш мақсадида Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 13 апрелдаги ПҚ-5072-сон “**Бюджет жараёнида фуқароларнинг фаол иштирокини таъминлаш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида**”ги қарори қабул қилинди.



Тасдиқланган хужжатга кўра, фуқароларни бюджет жараёнига янада жалб қилиш мақсадида, **2021 йилдан бошлаб ҳар бир ҳудудда биттадан туман ёки шаҳарда** тегишли туман (шаҳар)лар бюджетлари тасдиқланган умумий харажатларининг **5 фоизини** жамоатчилик фикри асосида шаклланган тадбирларни молиялаштиришга йўналтириш бўйича янги тартиб жорий этилди. 2022 йилдан бошлаб эса ушбу тартиб **барча туман ва шаҳарларга тадбиқ этилди.**

2021 йил 1 июлдан бошлаб жамоатчилик фикри асосида шакллантирилган тадбирларни молиялаштиришга ажратиладиган туман (шаҳар)лар бюджетлари кўшимча маблағларининг ЭНГ КАМ МИҚДОРИНИ **10 фоиздан 30 фоизга оширилди.**

Тасдиқланган янги механизм асосида “Очиқ бюджет” ахборот порталининг янги талқини ишлаб чиқилиб, 2021 йилнинг **1 июлидан** бошлаб мамлакатимизнинг барча туман ва шаҳарларида жамоатчилик фикри асосида тадбирларни шакллантириш жараёнлари ўтказилди.

Ташабbusli бюджет жараёни уч босқичда ўтказилиб, бунда **1-босқич** 1 – 31 июл давомида фуқаролардан таклифларни қабул қилиш, **2-босқич** 1 – 12 августга қадар туман ва шаҳар ишчи комиссиялари томонидан таклифларни танлаб олиш (модерация) жараёни, **3-босқич** 13 – 31 августга қадар билдирилган таклифларга овоз бериш жараёни ўтказилди.

1-босқич якунларига кўра “Очиқ бюджет” ахборот порталида рўйхатдан ўтган фуқаролар томонидан жами **41 125** та таклифлар билдирилди. Келиб тушган таклифлар таҳлилига кўра, фуқароларни ЭНГ КИЙНАБ КЕЛАЁТГАН муаммолар сифатида **13 853** та (жами таклифларнинг 34 фоизи) таклиф **ИЧКИ ЙЎЛЛАРНИ ТАЪМИРЛАШ** ва тартибга келтириш билан боғлиқ муаммоларни ташкил этган.

2021 йилда ўтказилган “Ташабbusli бюджет” жараёнларида фуқаролар томонидан билдирилган таклифларнинг соҳалар кесимида тақсимоти

T/P	Таклиф мазмуни	Сони	Фоизи
	ЖАМИ	41 125	100%
1	Ички йўлларни таъмирлаш	13 853	34%
2	Умумтаълим мактабларини таъмирлаш ва жиҳозлаш	6 798	17%
3	Ёритиш тизимини яхшилаш	5 649	14%



4	Ичимлик суви таъминоти	4 424	11%
5	Электр энергия таъминоти	2 531	6%
6	Болалар майдончаси ва спорт майдонлари	2 367	6%
7	Биноларни таъмирлаш (МФЙ, СЭС, кутубхона ва бошқалар)	1 463	4%
8	Табиий газ таъминоти	1 147	3%
9	Интернет тармоғига уланиш	820	2%
10	Худудларни ободонлаштириш тадбирларига	599	1%
11	Мактабгача таълим муассасалари ҳолатини яхшилаш	338	1%
12	Оқава сув тизимини яхшилаш	192	0%
13	Бошқалар	944	2%

Келиб тушган таклифлардан **21 833** таси ҳудудларда ташкил этилган ишчи комиссия томонидан белгиланган мезонларга мувофиқ деб топилиб, овоз бериш жараёнига ўтказилган. Овоз бериш жараёни давомида мамлакатимиз бўйлаб жами **1,1 млн** нафар фуқаролар ўзларини қизиктирган таклифларга овоз бердилар. Шундан, Порталда рўйхатдан ўтган ҳолда **86,6 минг**, СМС қисқа хабар орқали – **711,1 минг** та ҳамда интернет тармоғига уланиш имкониятига эга бўлмаган фуқаролар учун жорий этилган оффлайн тизим орқали – **34,9 минг** та овозлар келиб тушган.

Шу билан бирга, мазкур жараёнлар илк маротаба ўтказилаётганлиги ҳамда жойларда ахолини қийнаб келаётган муаммоларнинг тўпланиб қолганлиги сабабли, ушбу муаммоларнинг яна бир қанча вақт давомида ечимсиз қолишини олдини олиш мақсадида, Ўзбекистон Республикаси Президентининг жорий йил 22 сентябрдаги ПҚ-5250-сон ““Очиқ бюджет” ахборот портали орқали жамоатчилик фикри асосида шаклланган тадбирларни молиялаштиришни янада кенгайтириш чора-тадбирлари тўғрисида” ги қарори қабул қилинди.

Қарор жорий йилда ўтказилган жамоатчилик фикри асосида тадбирларни шакллантириш жараёни натижаларидан келиб чиқиб, аҳоли томонидан келиб тушган ўринли ва долзарб таклифлар асосида ишлаб чиқилди.

Қабул қилинган қарорга кўра, фуқаролар томонидан келиб тушган таклифларни молиялаштириш учун “Фуқаролар ташаббуси жамғармаси”да



1 млрд сўмдан кам маблағ шаклланган 120 та туман ва шаҳар учун қўшимча 57,9 млрд сўм, “Очиқ бюджет” ахборот портали орқали келиб тушган таклифлар сони 100 тадан ошган 119 та туман ва шаҳарларнинг ҳар бирига қўшимча 500 млн сўмдан учун жами 59,5 млрд сўм, жами **117,4** млрд сўм маблағ республика бюджетидан қўшимча ажратилиб, белгиланган тартибда тегишли туман (шаҳар) бюджетларга ўtkазиб берилди. Ўз навбатида, ушбу маблағлар тегишли туман (шаҳар) ҳокимлиги қошида очилган “Фу қаролар ташабbusi жамғармаси”га йўналтирилиши таъминланди.

Келиб тушган долзарб таклифларни молиялаштириш мақсадида республика бюджети ҳисобидан жами 210,1 млрд сўм маблағлар тегишли маҳаллий бюджетларга йўналтирилди. Жумладан, республика бюджети маблағлари ҳисобидан 14 та туман ва шаҳарлар учун жами синов тариyasida тегишли бюджетларнинг 5 фоизи миқдорида жами **92,7** млрд. сўм маблағлар тегишинча маҳаллий бюджетларга белгиланган тартибда ўtkазиб берилди. Бундан ташқари, туман (шаҳар) бюджетлари қўшимча манбаларининг бир қисми ҳисобидан бугунги кунга келиб 301,4 млрд сўм маблағлар “Фуқаролар ташабbusi жамғарма”ларига йўналтирилди.

Ажратилган маблағлар доирасида овоз бериш жараёни якунларига кўра 1 594 та (дастлабки ҳисоб-китобларга кўра амалга оширишнинг умумий қиймати **407,1** млрд сўм) таклифлар “ғолиб” деб топилиб деярли барчаси ўз якунига етказилди.

Ажратилган маблағлардан белгиланган тартибда фойдаланиш устидан жамоатчилик назоратини ўрнатиш ҳамда фуқаролар томонидан “ғолиб” деб топилган таклифларни амалга ошириш босқичларини бевосита кузатиб боришини таъминлаш мақсадида ташабbusli бюджет жараёни билан боғлиқ молиявий операцияларни фуқароларга кузатиб бориш имконияти ҳам мавжуд.

2022 йил 1 февралдан бошлаб ташабbusli бюджет жараёнининг жорий йилдаги биринчи босқичига “старт” берилди, бугунги кун ҳолатига ахборот порталига жами **69 700** та таклифлар келиб тушди.

Шу ўринда таъкидлаш жоизки, 2022 йилда жамоатчилик фикри асосида шаклланган тадбирларни молиялаштириш мақсадида туман ва шаҳар бюджетларининг 5 фоизи миқдорида жами 1,5 трлн сўм маблағлар йўналтирилиши режалаштирилган. Ушбу маблағлар доирасида фуқаролар томонидан билдирилган 5 мингдан ортиқ долзарб муаммолар ҳал этилишига эришиш кутилмоқда.

2021 йилда ўtkazilgan “Ташабbusli бюджет” жараёнларда фуқаролар томонидан жами **41 мингдан** ортиқ таклифлар билдирилган бўлса таклифлар таҳлилига кўра, фуқароларни энг кўп қийнаб келаётган муаммолар сифатида **13 853** та (жами таклифларнинг 34 фоизини) ички йўлларни таъмирлаш таклфи келиб тушган, ғолиб деб топилган қарийб **1600** таклифларнинг аксарият қисми яъни **400 га яқин** (жами таклифларга нисбатан 26 фоизи) айнан ички йўлларни таъмирлаш билан боғлиқ муаммоларни ўзида акс эттирган, таклифларга овоз бериш жараёнида **1,1 млн** нафар фуқаро иштирок этди шундан **7,7 мингтаси** –



ички йўлларни таъмирлаш ва тартиба келтириш билан боғлиқ муаммолар учун овоз бергани маълум бўлди.

Йил яқунларига кўра айнан “Ташаббусли бюджет” жараёнларига кўра голиб деб топилган таклифлар доирасида худудларда қарийб **300 км** ички йўллар ва пиёдалар йўлаклари таъмирланди.

Бундан кўриниб турибаки жойларда ички йўлларни таъмирлаш бўйича ҳам талайгина муаммолар мавжуд ва айнан фуқароларнинг талаби ҳамда таклифи ҳам айнан сифатли ва равон йўллардур шу муносабат билан, Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2022 йил 2 февралдаги **“Автомобиль йўллари соҳасида очиқлик стандартларини жорий этиш ва соҳада жамоатчилик назоратини кучайтириш чора-тадбирлари тўғрисида”**ги 49-сонили қарори қабул қилинди.

Мазкур қарорга асосан бюджет маблағларини сарфланишида фуқаролар иштирокини янада ошириш ва юратимиздаги мавжуд ички йўллар сифатини яхшилаш мақсадида 2022 йилдан бошлаб туман ва шаҳарлар бюджетлари параметрларида худудий ички йўлларни таъмирлаш учун ажратиладиган маблағларнинг 50 фоизи «Очиқ бюджет» ахборот портали орқали жамоатчилик фикри асосида аниқланган ички йўлларни таъмирлашга йўналтирилиши қатъий белгилаб қўйилди.

Бу тизми “Ташаббусли бюджет” жараёнларидан фарқли ўлароқ бир йилда бир маротаба ўтказилади.

Мазкур жарайнлар бевосита “Очиқ бюджет” ахборот портали орқали амалга оширилади бунда, ахборот порталига ички йўлларнинг жойлашган манзили (геопозицияси), тўлиқ номлари, узунлиги, ҳолати (асфальтланган, таъмирталаб) ва бошқа маълумотлари тўлиқ киритилади ҳамда фуқаролар ички йўллар реестридан геомаълумотлар асосида тегишли ички йўлни танлаш орқали ўз таклифларини қолдириш имкониятига эга бўлади.

Ахборот портали автоматик равишда таъмирлашга доир ўртacha нархни ва туман (шаҳар) бюджети параметрларидан келиб чиқиб, ҳар бир туман (шаҳар) бўйича таъмирланадиган ички йўлларнинг умумий хажмини аниқлайди.

Ахборот портали орқали жамоатчилик фикри асосида ички йўлларни таъмирлашда таклифларни шакллантириш тартиби:

1. Ахборот портали орқали жамоатчилик фикри бевосита фуқаролар томонидан билдирилган таклифлар асосида шакллантирилади;

2. Ахборот портали орқали таклифларни юбориш ҳамда овоз бериш жараённида фақатгина вояга етган фуқаролар иштирок этишлари мумкин;

3. Фуқаролар ҳар йили ички йўлларни таъмирлашга фақат битта таклифни илгари суриши ҳамда битта таклифга овоз бериши мумкин. Фуқаролар ўзлари томонидан киритилган таклифга овоз бериши тақиқланади.

4. Ички йўлларни таъмирлашга доир таклифлар киритиш фуқаролар томонидан ахборот порталида тақдим этилган Ички йўллар реестридаги тегишли ички йўллардан бирини танлаш орқали амалга оширилади.

5. Ахборот портали орқали таклиф киритиш бевосита порталда рўйхатдан ўтиш орқали амалга оширилади.



6. Ҳар бир туман ва шаҳарларда билдирилган таклифлар бўйича берилган энг кўп овозлар сонидан келиб чиқиб, юқоридан пастга қараб сараланади.

7. Ғолиб таклифлар туман (шаҳар) маҳаллий бюджетлари параметрларида ҳудудий ички йўлларни таъмирлаш учун ажратилган маблағларнинг камидаги 50 фоизи доирасида таклифларни амалга ошириш қийматини ҳисобга олган ҳолда автоматик тарзда кетма-кетлик бўйича аниқланади.

8. Агар кетма-кетлик бўйича ғолиб деб топилган таклифларнинг амалга ошириш қиймати тегишли туман (шаҳар) маҳаллий бюджети параметрларида ҳудудий ички йўлларни таъмирлашга ажратилган маблағларнинг 50 фоизидан кам бўлса, тегишли туман (шаҳар) маҳаллий бюджети параметрларида ҳудудий ички йўлларни таъмирлашга ажратилган маблағлар қийматидан ортиқ бўлмаган кетма-кетлик бўйича навбатдаги таклиф ҳам ғолиб деб топилади.

9. Ғолиб деб топилган таклифлар учун ажратиладиган маблағларнинг қиймати ҳисоб-китобига лойиҳа-смета ҳужжатлари асосида аниқлик киритилади. Бунда, лойиҳа-смета ҳужжатлари асосида аниқлик киритилган қиймат ғолиб деб топилган таклиф дастлабки қийматининг 5 фоизидан ошиб кетишига йўл қўйилмайди. Аниқлик киритилган лойиҳа-смета ҳужжатларига асосан таклифни амалга ошириш қиймати дастлабки таклиф қийматининг 5 фоиздан ошиб кетган ҳолларда лойиҳа-смета ҳужжатлари қайта қўриб чиқлади.

10. Агар ғолиб деб топилган таклифда кўрсатилган ички йўлларни таъмирлаш жорий йилда Ўзбекистон Республикаси Президенти, Ҳукуматнинг тегишли қарорлари ёки ривожлантириш дастурлари доирасида бошқа манбалар ҳисобидан таъмирланиши назарда тутилган бўлса, ахборот порталига Қорақалпоғистон Республикаси Молия вазирлиги, вилоятлар ва Тошкент шаҳар ҳокимлиги молия бош бошқармалари томонидан ушбу таклифни бошқа манбалар ҳисобидан молиялаштирилиши учун асос бўлувчи ҳужжатлар юкланди ҳамда ушбу таклиф автоматик равишда ахборот порталидаги ғолиблар рўйхатидан чиқарилади, бундай ҳолларда ахборот порталида кетма-кетлик бўйича ғолиблар рўйхатини қайта шакллантирилади.

11. Ғолиб деб топилган таклифлар Ички йўллар реестрида қайд этиб борилиб, келгуси уч йил давомида қайта таклиф бериш имконияти берилмайди.

Мазкур жараёнлардан кутилаётган асосий мақсад кенг жамоатчиликнинг таклифларига асососланган ҳолда ички йўллардаги мавжуд камчилик ва муаммоларни тизимили равишда бартараф этиш ҳамда бюджет маблағлари сарфланишида очиқлик ва шаффофоникни таъминлашдур.

Фойдаларилган адабиётлар рўйхати:

1. Ўзбекистон Республикасининг 2021 йил учун Ўзбекистон Республикасининг давлат бюджети тўғрисидаги ЎРҚ-657-сонли Қонуни <https://lex.uz/docs/5186044?query=2021>;

2. Ўзбекистон Республикасининг 2022 йил учун Ўзбекистон Республикасининг давлат бюджети тўғрисидаги ЎРҚ-742-сонли Қонуни <https://lex.uz/docs/5801127>;



3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 22 августдаги ПҚ-3917-сон “Бюджет маълумотларининг очиқлигини ва бюджет жараёнида фуқароларнинг фаол иштироқини таъминлаш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарори <https://lex.uz/docs/3879197>;

4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 13 апрелдаги ПҚ-5072-сон “Бюджет жараёнида фуқароларнинг фаол иштироқини таъминлаш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги қарори <https://lex.uz/docs/5370805>;

5. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлис Сенати Кенгашининг 2021 йил 22 апрелдаги ҚҚ-213-IV-сон қарори <https://lex.uz/docs/5411557>;

6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг жорий йил 22 сентябрдаги ПҚ-5250-сон “Очиқ бюджет” ахборот портали орқали жамоатчилик фикри асосида шаклланган тадбирларни молиялаштиришни янада кенгайтириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарори <https://lex.uz/docs/5651405>;

7. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлис Сенати Кенгашининг 2022 йил 26 январдаги ҚҚ-213-IV-сон қарори <https://lex.uz/docs/-5848112>;

8. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 2 февралдаги ПҚ-49-сон “Автомобиль йўллари соҳасида очиқлик стандартларини жорий этиш ва соҳада жамоатчилик назоратини кучайтириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарори <https://lex.uz/docs/5845985>;

9. Иқтисодиёт назарияси- Академик М. Шарифжоджаев илмий таҳрири остида тўлдирилган 2 нашр, Тошкент 2005 йил;

10. Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлиги расмий веб-сайти (www.mf.uz) <https://www.mf.uz/uz/>;

11. Ўзбекистон Республикаси Очиқ бюджет ахборот портали (www.openbudget.uz / www.ochiqbudget.uz) <https://www.openbudget.uz/>;

12. Иқтисодий таълимотлар тарихи маъruzalар матнидан- А.исломов, Э.егамов Тошкент 2009 йил;

13. “Бозор пул кредит” Олий илмий-амалий иқтисодий журнали 2021 йил ноябрь ойидаги сони (ISSN 2010-6580)

14. Citizens’ Panel. (2018). involve.org.uk. Available from <https://www.involve.org.uk/resources/methods/citizens-panel>;

15. Falanga, R. (2018). The National Participatory Budget in Portugal: Opportunities and Challenges for Scaling up Citizen Participation in Policymaking. Hope for Democracy: 30 years of Participatory Budgeting Worldwide, 447–466. Available from <https://doi.org/978-989-54167-0-7> (Accessed 1 May 2021);

16. Kang, Y.K. and Min, S.Y. (2013). Public Participation in the Budget Process in the Republic of Korea. Worldbank.org. Available from <https://doi.org/http://documents.worldbank.org/curated/en/178151523259318780/Public-participation-in-the-budget-process-in-the-Republic-of-Korea> (Accessed 30 April 2021);

17. Public Participation and the Budget Cycle: Lessons from Country Examples | PFM-KIN. (2014). Pfmkin.org. Available from <https://www.pfmkin.org/node/315> (Accessed 1 May 2021).



ЎЗБЕКИСТОН-ФУҚАРОЛАР ИШТИРКИДА БЮДЖЕТ МАБЛАҒЛАРИНИ САРФЛАШДА ЯНГИ БОСҚИЧДА

Хамидов Хабибулло Хикматулла ўғли

Молия вазирлиги Давлат бюджети департаменти бош иқтисодчиси,
Ўзбекистон Республикаси Тошкент шахри. e-mail: hhamidov@mf.uz/
hamidov93.93@mail.ru

Аннотация. Уибу мақолада Ўзбекистонда аҳоли турмуши даражасини яхшилаш ва фуқароларни қийнаб келаётган ижтимоий-иқтисодий муаммо ва камчиликларни ҳал этилиши бўйича олиб борилган ишлар, жойларда инфратузилмаларни яхшилаш ҳамда тизимили муаммога айлануб қолган камчиликларни ҳал этишида давлат бюджетидан ажратиладаиган маблағлар, маҳаллаий бюджетлар ва давлат дастурлари доирасида ажратилган маблағларни аҳоли учун бугунги кунда энг зарур деб топилган йўналишларда оқилона ўзлашибилишида фуқароларнинг фаол иштирок этиши, ҳамда фуқаролар ўз таклифларини (батифсил кўринишда) қолдиришилари ва тегишили таклифларга овоз берииш тизими жорий этилгани ёритилган.

Таянч сўзлар. Ташаббусли бюджет, Очиқ бюджет, Фуқаролар учун бюджет, ахборот портали, давлат бюджети, Ахборот портали, Менинг йўлим.

Барчамизга маълумки, мамлакатимизда олиб борилаётган очиқлик ва шаффофлик сиёсати доирасида сўнгги йилларда ижтимоий-иқтисодий дастурларни шакллантириш ва уни ижро этиш жамоатчиликни кенг жалб анъанавий тусга айлануб улгурди.

Бунда, фуқаролик позицияси нафақат жамиятда балки давлат бошқарувида ҳам аввалги йилларга нисбатан сезиларли даражада яхшиланган. Жамоатчилик назорати натижасида сўнгги икки йилликда эришилган бир қанча ютуқларни санаб ўтиши мумкин. Шулардан, давлат бюджети билан бевосита боғлиқ ҳамда фуқаролар учун бугунги кунда энг долзарб лойиҳалардан бирига айланган **Ташаббусли бюджет** жараёни ушбу ютуқларга ёрқин мисол бўла олади.

Мазкур жараён ўтган давр мобайнида аҳолини қийнаб келаётган муаммоларни “маҳаллабай” тарзда ҳамда қисқа давр ичида ҳал этиш имконини берувчи механизм сифатида ҳалқ ишончини қозонди десак муболаға бўлмайди. Бунда, ушбу жараён доирасида эришилаётган ютуқлар қаторида нафақат бюджет маблағларидан самарали фойдаланишини ташкил этиш ёки ҳудудлардаги долзарб муаммоларни ҳал этилишига



эришиш, балки фуқароларнинг ягона мақсад учун бирлашуви, дахлдорлик хиссини шаклланиши ва жамиятдаги ўрни учун курашиши каби ижобий факторларни ҳам санаб ўтиш мумкин.

2022 — 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегиясини «Инсон қадрини улуғлаш ва фаол маҳалла йили»да амалга оширишга оид Давлат дастурининг 21-мақсадига асосан жорий йилдан бошлаб барча туман ва шаҳарлар бюджетларининг 5 фоиз қисмини фуқаролар ташабbusи учун ўйналтирилиши белгиланган.

Ушбу мақсадлар учун жорий йилда туман ва шаҳар бюджетлари ҳисобидан **1,5 трлн сўм** ҳамда туман ва шаҳар бюджетлари қўшимча маблағларининг камида 30 фоиз қисми ҳисобидан қарийб **400 млрд сўм** ўйналтирилди.

Бундан ташқари, жорий йилда ўтказилган 2 та мавсумда **2000 дан** ортиқ овоз тўплаган лекин ғолиб деб топилмаган жами **503 та** лойиха учун истисно тариқасида республика бюджетидан жами **420,4 млрд сўм** маблағлар ўйналтирилган.

Йил якунларига кўра, жорий йилда ғолиб деб топилган жами **4136 та** лойиха учун **2,5 трлн сўм** маблағлар ўйналтирилиши кутилмоқда.

Ташабbusli бюджет жараёнларининг 2022 йил 2-мавсум (июль-сентябрь) якуни бўйича эришилган натижаларга тўхталиб ўтсан.

Республика бўйлаб фуқаролар томонидан **61 мингдан** ортиқ лойиҳалар илгари сурилди. Келиб тушган лойиҳалар саралаш босқичидан ўтказилиб, жамоат манфаатларига хизмат қилувчи **37,7 мингта** лойиҳалар ташабbusli бюджетнинг иккинчи мавсумида овозга қўйилди.

Бунда республикамизнинг **9 201 та маҳаллалари жамоалари** ёки жами маҳаллаларнинг **98 фоизи** ўз лойиҳалари билан ташабbusli бюджет танловида иштирок этдилар.

Овозга қўйилган лойиҳаларнинг **13,7 мингтаси** (**36 фоизи**) ички йўлларни таъмирлаш, **5,5 мингтаси** (**15 фоизи**) кўча чироқларини ўрнатиш ва таъмирлаш, **4,9 мингтаси** (**13 фоизи**) умумтаълим мактабларини таъмирлаш ва жиҳозлаш билан боғлиқ тадбирларни ташкил этди.

Сурхондарё вилоятида **5,7 мингта** (жами лойиҳаларнинг **15 фоизи**), Хоразм вилоятида **3,9 мингта** (**11 фоизи**), Наманагн вилояти **3,4 мингта** (**9 фоизи**), лойиҳаларни амалга ошириши юзасидан ташабbusлар билдирилди.

Овоз бериш жараёнига ўтказилган **37,7 минг** лойиҳаларни ёқлаб фуқаролар томонидан **7,8 миллион**дан ортиқ овоз берилди.



Жумладан, Фаргона вилоятида **1,3 миллион** (худуд аҳолисига нисбатан **33 фоиз**), Қашқадарё вилоятида **871 минг** (**26 фоиз**), Самарқанд вилоятида **850 минг** (**21 фоиз**) фуқаролар ўз лойиҳалари учун овоз бердилар.

Битта лойиҳа учун **икки мингдан** ортиқ овоз тўплаган лойиҳалар сони **1 143 та**, хусусан **50 та** лойиҳанинг ҳар бири **ўн мингдан** ортиқ, **264 та** лойиҳанинг ҳар бири **беш мингдан ўн минггача** овоз тўплади.

Овоз бериш жараёни якунларига кўра, республика бўйича **4,3 миллион** фуқаро томонидан овоз берилган **1 418 та** лойиҳалар ғолиб деб топилди.

Шу билан бирга, Ўзбекистон Республикаси Президентининг қарорига асосан 2000 дан ортиқ овоз тўлаб ғолиб деб топилмаган **364 та** лойиҳалар ҳам қўшимча равища ғолиб деб топилди.

Натижада 2-мавсум якунларига кўра жами ғолиб лойиҳалар сони 1782 тани ташкил этиб, шундан 573 таси (32 фоиз) – умумтаълим муассасаларини таъмирлаши ва жиҳозлаши, 455 таси (26 фоиз) – ички йўлларни таъмирлаши, 217 таси (12 фоиз) – соғлиқни сақлаши муассасаларини таъмирлаши ва жиҳозлаши, 76 таси (4 фоиз) – ичимлик суви, канализация ва сугории тизимларини қуриши (таъмирлаши) ташкил этган.

*Натижада, 2-мавсум доирасида 1 563 та маҳаллаларда ижтимоий аҳамиятга эга бўлган умумий қиймати **1,3 трлн** сўмлик лойиҳалар амалга оширилишига эришилди. Ушбу лойиҳаларни ёқлаб фуқаролар томонидан **5,6 миллион** овозлар берилган.*

Эришилган ушбу ютуқлар қаторида айрим камчиликлар кузатилганини ҳам эътироф этиш лозим. Жумладан, овоз бериш босқичи давомида Порталдан фойдаланкувчилар сони кескин ортгани ҳамда ташриф буюрувчилар сони ўртacha кунлик 500-600 минг нафарни ташкил этганлиги сабабли, Портал фаолиятида техник носозликлар кузатилди.

Шу муносабат билан келгусида Ташаббусли бюджет жараёнларини ўтказилишида **бу каби ҳолатларни олдини олиш мақсадида** Ахборот технологиялари ва коммуникацияларини ривожлантириш вазирлиги билан ҳамкорликда Очиқ бюджет ахборот порталини тубдан такомиллаштириш кўзда тутилмоқда.

Бундан ташқари, ғолиб деб топилган лойиҳаларни молиялаштириш ва ўз вақтида амалга ошириш бўйича Сиз ҳурматли депутатларнинг қўмагингиз остида Ташаббусли бюджет жараёнини мувофиқлаштириш бўйича Олий Мажлис Сенати қарори билан тасдиқланган амалдаги Намунавий Низомга тегишли нормалар киритилди.



Бунга кўра, Очиқ бюджет ахборот портали орқали жамоатчилик фикри асосида шаклланган тадбирларни сифатли ва ўз вақтида молиялаштирилишини тъминлаш мақсадида Низом бир қатор бандлар билан тўлдирилди.

Жумладан, лойиҳаларни амалга ошириш учун тадбирларни соҳасидан келиб чиқиб тегишлилиги бўйича масъул **буюртмачи ташкилотларни бириктириш** бўйича рўйхат;

ташаббусли бюджет жараёни доирасида фуқаролар томонидан келиб тушган лойиҳалар Очиқ бюджет ахборот порталига келиб тушган кундан бошлаб **10 кун** давомида буюртмачи корхоналар томонидан кўриб чиқилиши ва **хuloscha тақдим этилиши** мажбурийлиги;

овоз бериш босқичи якунлангандан сўнг **7 кун** муддатда “Голиб” деб топилган лойиҳаларни молиялаштириш юзасидан Халқ депутатлари туман (шаҳар) Кенгашлари қарори қабул қилиниши;

товар моддий бойликлар (хизматлар)ни харид қилиш, обьектларни тъмирлаш ва қуриш бўйича лойиҳаларни молиялаштириш бўйича **харид қилиш тартиб-таомили тури ва муддатлари**;

loyiҳalarni amalga oshirišda **жамоатчилик назоратini ūrnatiлишини** назарда тутувчи бандлар билан тўлдирилди.

Фойдаларилган адабиётлар рўйхати:

18. Ўзбекистон Республикасининг 2021 йил учун Ўзбекистон Республикасининг давлат бюджети тўғрисидаги ЎРҚ-657-сонли Қонуни <https://lex.uz/docs/5186044?query=2021>;

19. Ўзбекистон Республикасининг 2022 йил учун Ўзбекистон Республикасининг давлат бюджети тўғрисидаги ЎРҚ-742-сонли Қонуни <https://lex.uz/docs/5801127>;

20. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 22 августдаги ПҚ-3917-сон “Бюджет маълумотларининг очиқлигини ва бюджет жараёнида фуқароларнинг фаол иштироқини тъминлаш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарори <https://lex.uz/docs/3879197>;

21. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 13 апрелдаги ПҚ-5072-сон “Бюджет жараёнида фуқароларнинг фаол иштироқини тъминлаш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги қарори <https://lex.uz/docs/5370805>;

22. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлис Сенати Кенгашининг 2021 йил 22 апрелдаги КҚ-213-IV-сон қарори <https://lex.uz/docs/5411557>;

23. Ўзбекистон Республикаси Президентининг жорий йил 22 сентябрдаги ПҚ-5250-сон “Очиқ бюджет” ахборот портали орқали жамоатчилик фикри асосида шаклланган тадбирларни молиялаштиришни янада кенгайтириш чора-тадбирлари тўғрисида” ги қарори <https://lex.uz/docs/5651405>;



24. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлис Сенати Кенгашининг 2022 йил 26 январдаги ҚҚ-213-IV-сон қарори <https://lex.uz/docs/-5848112>;

25. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 2 февралдаги ПҚ-49-сон “Автомобиль йўллари соҳасида очиқлик стандартларини жорий этиш ва соҳада жамоатчилик назоратини кучайтириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарори <https://lex.uz/docs/5845985>;

26. Иқтисодиёт назарияси- Академик М. Шарифжоджаев илмий таҳрири остида тўлдирилган 2 нашр, Тошкент 2005 йил;

27. Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлиги расмий веб-сайти (www.mf.uz) <https://www.mf.uz/uz/>;



Boyitish fabrikalari chiqindilarini qayta ishlash texnologiyalarini tadbiq qilish

t.f.d., prof. Abdurahmonov.S.A

Toshkent Davlat Texnika Universiteti Olmaliq filiali.

Sayfullayeva Dilshoda Abduhoshim qizi

Toshkent Davlat Texnika Universiteti Olmaliq filiali magistranti

Annotatsiya:

Maqolda OKMK MOF chiqindilarini qayta ishlash, ularni shakllantirish muammolari va ular yuzaga kelishi mumkin bo`lgan sharoitlar, shuningdek ularni oldini olish uchun qanday yechimlar topish mumkinligi haqida bajarilgan ishlar tahlil qilingan.

Annotatsiya:

В статье анализируются выполненные работы по переработке отходов МОФ АКМК, проблемы их образования и условия, при которых они могут возникнуть, а также какие пути решения можно найти для их предотвращения.

Abstract:

The article analyzes the work done on the processing of MOF wastes of OKMK, the problems of their formation and the conditions under which they may occur, as well as what solutions can be found to prevent them.

Tayanch iboralar:

Mis, chiqindilar, chiqindilarni qayta ishlash, ma`danlarni boyitish, oltin, oltinni o`z ichiga olgan chiqindilar, floatsiya, gravitatsiya.

Основные фразы:

Медь, отходы, переработка отходов, обогащение, золото, золотосодержащие отходы, флотация, гравитация.

Basic phrases:

Copper, waste, waste processing, beneficiation, gold, waste containing gold, floatation, gravity.

Chiqindilar va ayniqla, shlak uyumlari shahar atrofidagi hududni egallab, minglab gektar qishloq xo'jaligi yerlarini, havo havzasini ifloslantiradi va landshaftni buzadi. Atrof-muhitni ifloslanishidan yetkazilgan zararni baholash chiqindisiz texnologiyani yaratish va undan foydalanishning iqtisodiy maqsadga muvofiqligi chegaralarini sezilarli darajada kengaytirishga olib keladi.



Rangli metallarning pirometallurgiya ishlab chiqarishi eritilgan metallga nisbatan shlakning yuqori chiqishi bilan tavsiflanadi. Rangli metallarning shlak bilan yo'qotish miqdori zaryadni tayyorlash, eritishning texnologik rejimining parametrlari va eritmalarning fizik-kimyoviy xususiyatlari kabi ko'plab omillar bilan belgilanadi. Ba'zan, eritish jarayonida shlak miqdori metall konsentratsiyalangan qimmatbaho sanoat oraliq mahsulotlarning hosilidan o'n baravar yuqori bo'ladi. Shu sababli, shlakdagi rangli metallarning miqdori nisbatan past bo'lsada (0,1 - 2,0%), umumiyo yo'qotish ta'sirchan ko'rsatkichdir. Sanoat shlaklari bilan metallarning yo'qotilishini kamaytirishning murakkab muammosini hal qilishda suyuq sanoat shlaklarida metallning mavjudligi shakllari haqida aniq ma'lumotga ega bo'lish kerak. Ushbu ko'rsatkichlarni hisobga olgan holda, atrof-muhitga ta'sir qiluvchi boyitish fabrikalarida hosil bo'ladigan chiqindilar miqdorini kamaytirish yo'llarini belgilash maqsadga muvofiqdir.[1]

Mineral xomashyo va tarkibida rangli, nodir va noyob metallar bolgan sanoat texnogen chiqindilarini kompleks qayta ishlash sohasidagi ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari umumlashtirilgan. Gidrometallurgiya va kombinatsiyalangan pirometallurgiya va gidrokimyoviy texnologiyalarning istiqbollari ko'rsatilgan. Qayta ishlashning optimal texnologik sxemalari tavsiya etilgan. Tarkibida oltin saqlovchi rudalar va materiallarni qayta ishlashning turli jarayonlarini geokimyoviy va texnologik tadqiqotlar o'tkazildi.[2]

Taskora konidagi chiqindi aralash mis rudalarini samarali xo'jalik faoliyatiga jalg'etish maqsadida ularni qayta ishlashning kombinatsiyalangan flotatsion-gidrometallurgiya texnologiyasini ishlab chiqish yo`lga qo'yildi.

Ishda kompleks tadqiqot usuli qo'llanilgan bo'lib, u quyidagilardan iborat: aralash mis rudalarini samarali qayta ishlash bo'yicha mahalliy va xorijiy tajriba va sifatsiz misni o'z ichiga olgan xom ashyo chiqindilarini utilizatsiya qilish texnologiyalari, rуданing kimyoviy, fizik-kimyoviy hamda mineralogik usullarini tahlil qilish.[3]

Chernaya daryosining allyuvial oltin konining qayta ishlashdan keyin tarkibi boy bo'lgan chiqindilar qumlarda qoladi. Chernaya daryosi konida oltin qazib olish texnologiyasida qoldiqlar 1 va 2 qoldiqlarida qolmoqda.

Mahsulotlardagi oltin miqdori:

qoldiqlarni boyitish CCV (konsentrat 1) - 6,3 g/ m³ ;



tugatish quyruqlari (konsentrat 2) -2300g/m³ ;
shlak-4500g/m³ .

Oltinni boyitish va eritish qoldiqlaridan ajratib olish maqsadga muvofiqdir. Buning uchun yangi chiqindilarni qayta ishslash texnologiyasi tavsiya etiladi.

Chiqindi mahsulotlari tarkibini tahlil qilish va bunday materiallarni qayta ishslashning ma'lum usullari asosida ularni qayta ishslash usullari taklif etildi.[4]

Rossiya Federatsiyasi konlaridan birida oltin o'z ichiga olgan rudani boyitish mahsulotlari va qoldiqlarini gidrometallurgik qayta ishslashni o'rganishga bag'ishlangan. Tadqiqot ob'ektlari gravitatsiyaviy qoldiqlar, gravitatsiyaviy qoldiqlardan olingan flotatsion kontsentratlar va flotatsion qoldiqlar edi. Flotatsion qoldiqlarning suyuq fazasi biotest usullari bilan o'rganildi. Aniqlanishicha, ushbu mahsulot atrof-muhit uchun chiqindilar xavfining beshinchi sinfiga kiradi, eng yaxshi oltin olish ko'rsatkichlari (92,79%) gravitatsiyaviy qoldiqlarni 0,05% eritmada siyanid konsentratsiyasi bilan siyanlash orqali olingan. Kompleks hosil qiluvchi moddaning kontsentratsiyasini 0,01% gacha kamaytirish metallning past erish tezligi tufayli oltin qazib olishning keskin pasayishiga (32,90% ga) olib keladi. Flotatsion kontsentratni siyanidlash, materialning boshlang'ich o'lchami 96,5% -0,074 mm bo'lgan eritmada kompleks hosil qiluvchi kontsentratsiyasi 0,2% darajasida amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir. Bu holda oltin qazib olish 98,62% ni, sianidni yuvish uchun sarflanishi 8,73 kg/t, ohak 6,33 kg/t ga yaqin. Konsentrat hajmini 95% -0,045 mm gacha qisqartirish oltin olishning 0,25% ga biroz oshishiga, konsentrat hajmining yana 95% -0,02 mm gacha pasayishiga - oltin olishning 53,73% ga sezilarli pasayishiga olib keladi.[5]

Oltin qazib olish zavodlarining eskirgan qoldiqlarini qayta ishslashda fizikaviy va fizik-kimyoviy usullar majmuasidan foydalanildi: kimyoviy, rentgen fazasi, mineragrafik, tasviriy tahlil, atom yutilishi.[6]

Rangli, asl va nodir metallar rudalarini nam qayta ishslashning joriy va eskirgan qoldiqlarini boyitishning tejamkor usullari ishlab chiqildi.

Rudalarning eskirgan va joriy qoldiqlarini gidrotashish jarayonida boyitilgan fraksiyani tortib olish imkoniyati yaratildi va qurilmalar ishlab chiqildi; tarkibida nodir va nodir metallar bo'lgan qoldiqlar uchun bosimsiz va bosimli apparatlarda markazdan qochma



konsentratsiyalash usullari bilan; murakkab karbonat-ftorit rudalarini boyitishda ftorit yo‘qotilishini kamaytirish texnologiyasi ishlab chiqildi.[7]

Shoumyan konidan (Kapan) polimetall ruda boyitish qoldiqlari namunalaridan qimmatli metallarni biogidrometallurgik usulda ajratib olish imkoniyatlari organildi. Qoldiqlar temir va oltingugurtni oksidlovchi bakteriyalar Acidithiobacillus sp.13Zn, dan foydalanilgan. Ko'rsatilishicha, sinovdan o'tgan qoldiq namunalari bioto`yintirish uchun juda mos va qulay ob'ektlardir. Chiqindi namunalarini yuvish tabiiy kon suv konsortsiumi yordamida amalga oshirilishi mumkin. Qimmatbaho metallarni qazib olish jarayonlarini faollashtirish uchun yuvish bakteriyalarining temir va oltingugurt oksidlovchi bakteriyalar Acidithiobacillus sp. dan foydalanish mumkin. [8]

Oltinni o'z ichiga olgan ma'danlarni to'plangan texnogen mineral obyektlardan, birinchi navbatda, chiqindilar, quyruq va suvdan boyitish chiqindilarini qayta ishlash xom ashyo zaxiralari past bo'lgan ko'plab oltin qazib olish kompaniyalari uchun dolzarb bo'lib qolmoqda. Ushbu maqolada mualliflar tomonidan oltin miqdorini oshirish maqsadida siyanid chiqindilarini zararsizlantirish orqali dastlabki chiqindilarni oldindan qayta ishlash imkoniyati o'rganildi. Chiqindilarni yig'ish va eritmalarda siyanidlarni zararsizlantirish uchun turli usullar, xususan, Deuss usuli va chiqindilarni kaston eritmasi bilan boyitish usullari ko'rib chiqildi. Oltinni o'z ichiga olgan ma'danlarni boyitish chiqindilarini qayta ishlash jarayonini ekoliya uchun turli reagentlardan foydalanish bo'yicha katta hajmdagi ma'lumotlarni o'rganish natijasida vodorod peroksiddan foydalanishning afzalliklari haqida xulosa chiqarish mumkin. Vodorod peroksid bilan siyanidlarni neytrallash sxemalari va siyanidni o'z ichiga olgan eritmalarining neytrallash natijalari taqdim etilgan. Mualliflar Deuss usuli uchun analistik asosni ishlab chiqdilar, unda umumiyligi siyanid miqdori 1 mg/l ga va vodorod peroksid sarf-xarajatlarining dastlabki materiallar tarkibiga qarab, ikki yoki olti marta stechiometrik miqdordan oshib ketgan holda sezilarli darajada kamaydi. Bugungi kunda tabiatni muhofaza qilish faoliyatining vazifasi asosiy ishlab chiqarish jarayonlarining texnologik yechimlarini yo'q qilishdir.[9]

Atrof-muhitni muhofaza qilishning radikal usuli qayta ishlash mahsulotlarini to'liq utilizatsiya qilish bilan tog ' - kon va boyitish chiqindilarini yo'q qilish bilan bog`liqdir.



Innovatsion yo'nalishning xarakteristikasi yer osti foydali qazilmalarni qazib olishda texnogen bo'shliqlarni to'ldirish uchun qattiqlashtiruvchi aralashmalar tayyorlash uchun boyitish chiqindilaridan foydalaniladi. Ulardan metallarni chiqarmasdan quyruqlardan foydalanish palliativ ekanligini ko'rsatdi. Boyitish chiqindilarini faollashtirish orqali isbotlangan deintegrator yilda tanlab eritmaga o'tkazish sezilarli qayta ishlash chiqindilari sifatini yaxshilaydi va ulardan qattiqlashtiruvchi aralashmalarning kuchini oshiradi.[10]

Flotasiya qo'rg'oshin-rux boyitish zavodi flotasining ishlab chiqarish faoliyati natijasida hosil bo'lgan chiqindi qumlarini yo'q qilish imkoniyati ham berilgan. Mahsulot selektiv kontsentratlarga sulfidlarni utilizatsiya qilish ikki bosqichda amalga oshiriladi: 1) modulli turdag'i mobil qurilma yordamida quyruqlarni gravitatsion usullar bilan joylashtirish joyida sulfid mahsuloti ulardan olinadi; 2) flotatsiya texnologiyasi bo'yicha statsionar zavodda haqiqiy ishlab chiqarish sulfidli mahsulot joriy ishlab chiqarish yoki mustaqil ravishda ruda bilan birgalikda qayta ishlanadi. Gravitatsion texnologiyalarning apparatura bezashining o'ziga xos xususiyati nozik qatlamlili ish joylarida ajratish uchun vintli separatorlar va krutonaklon yopiq kanallardan foydalanishdir.[11]

Chiqindilarni yo'q qilishning asosiy yo'nalishi ularni qurilish materiallari ishlab chiqarish uchun ikkilamchi xom ashyo sifatida ishlatishdir. Boyitish chiqindilaridan olingan qumlar tosh va gipsli ohaklarda, silikat g'ishtlarini ishlab chiqarishda, yo'llar, binolar, inshootlar uchun sun'iy poydevor qurishda, to'ldirish uchun, klinkersiz shlakli sement ishlab chiqarish uchun xom ashyo sifatida ishlatilishi mumkin.[12] Bundan tashqari Volfram o'z ichiga olgan rudalarni, shuningdek ularni boyitish uchun chiqindilarni qayta ishlashda gravitatsiyaviy, flotatsiya, magnit, shuningdek elektrostatik, gidrometallurgiya va boshqa usullar qo'llaniladi. [13]

Tog` - kon sanoati chiqindilarini boyitish va qora metallar, o'g'itlar va qurilish materiallарini ishlab chiqarish uchun ishlatilishi mumkin. Ixtironing mohiyati: chiqindilar qum va shlamlarga oldindan tasniflanadi, qum va shlam kontsentratsion stollarda alohida-alohida boyitiladi. Qum konsentratsion jadvallarida olingan qo'pol ruda konsentratini va oraliq mahsulot alohida-alohida eziladi, shlakli stollarda ruda hosil qilib tozalanadi. Birlashtirilgan



ruda konsentrati shlakli stollarda boyitiladi, undan keyin oraliq mahsulot magnit maydonning turli kuchlanishlarida nam magnit ajratish bilan tozalanadi..[14]

Yuqorida bajarilgan ishlarni inobatga olgan holda, mis boyitish fabrikalaridan chiqayotgan chiqindilarni qayta ishlashda Gidrometallurgiya va kombinatsiyalangan pirometallurgiya va gidrokimyoviy texnologiyalari usulidan foydalanish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar.

[1] Мирзажонова С.Б. Маткаримов С.Т. Боходирова Н.К. Мирсаотов Б.У.

<https://7universum.com/ru/tech/archive/item/12759>

[2] Фундаментальная и прикладная гидрометаллургия / Р.Д. Аллабергенов; отв. ред. Х.С.Сабиров; Госпредприятие «Научно исследовательский институт минеральных ресурсов». - Т.: ГП «Научно-исследовательский институт минеральных ресурсов», 2012. - 276 с.: [21] илл., [13] табл., библиогр. - 172 назв. ISBN 978-9943-364-28-8 http://www.centrallab.uz/?s=p._alabergenov

[3] Синянская Ольга Михайловна <https://www.dissercat.com/content/razrabortka-i-obosnovanie-parametrov-tehnologii-pererabotki-smeshannykh-mednykh-rud-zhezkazg>

[4] Монгуш Г.Р., Котельников В.И.

Технологические процессы цветной металлургии

<https://www.econf.rae.ru/article/5172>

[5] ФЕДОТОВ ПАВЕЛ КОНСТАНТИНОВИЧд-р техн. наук, проф.1, СЕНЧЕНКО АРКАДИЙ ЕВГЕНЬЕВИЧген. директор2, ФЕДОТОВ КОНСТАНТИН ВАДИМОВИЧд-р техн. наук, зав. кафедрой1, БУРДОНОВ АЛЕКСАНДР ЕВГЕНЬЕВИЧканд. техн. наук, доц.1 <https://www.elibrary.ru/item.asp?id=44527693>

[6] Провалов, Сергей Александрович кандидат технических наук 2007, Магнитогорск <https://www.dissercat.com/content/kombinirovannaya-gravitatsionno-gidrokhloridnaya-tehnologiya-pererabotki-lezhalykh-khvostov>



[7] Руднев, Борис Петрович доктор технических наук 2004, Москва

<https://www.dissercat.com/content/obosnovanie-i-razrabotka-effektivnykh-metodov-obogashcheniya-tekushchikh-i-lezhalykh-khvosto>

[8] Н. С. ВАРДАНЯН НПЦ "Армбиотехнология" НАН РА, Г. Г. СЕВОЯН Национальный политехнический университет Армении С. В. НАВАСАРДЯН ЗАО "Dundee Precious Metals Kapan", 3301 Капан, ул. Горцарапаин 4 А. К. ВАРДАНЯН НПЦ "Армбиотехнология" НАН РАТ. С. НАВАСАРДЯН ЗАО "Dundee Precious Metals Kapan", 3301 Капан, ул. Горцарапаин 4. <http://test.journals.sci.am/index.php/sci-armenian-biology/article/view/1240>

[9] Воробьев Кирилл Александрович ФГАОУ ВО «Российский университет дружбы народов», Москва, Россия Бакалавр, Чекушина Татьяна Владимировна ФГБУН «Институт проблем комплексного освоения недр имени академика Н.В. Мельникова РАН», Москва, Россия Ведущий научный сотрудник отдела горной экологии ФГАОУ ВО «Российский университет дружбы народов», Москва, Россия Доцент департамента «Геология, горного и нефтегазового дела» Доктор экономических наук, кандидат технических наук <https://esj.today/18ecvn118.html>

[10] В.И. Голик, В.И. Комащенко, А.В. Поляков
<file:///C:/Users/User/Downloads/sovremennoye-tehnologii-izvlecheniya-metallov-iz-hvostov-obogashcheniya-i-pererabotki-rud-s-tselyu-ih-kompleksnogo-ispolzovaniya.pdf>

[11] С.И. Евдокимов, В.С. Евдокимов Северо-Кавказский горно-металлургический институт (СКГМИ) (государственный технологический университет), г. Владикавказ ООО «Научно-производственное предприятие ГЕОС», г. Владикавказ Статья поступила в редакцию 03.11.13 г., доработана 01.04.15 г., подписана в печать 03.04.15 г. <https://cvmet.misis.ru/jour/article/viewFile/193/182>

[12] . Lesovik R.V., Alfimova N.I., Kovtun M.N., Lastovetskiy A.N. Texnogen qumlardan qurilish materiallari ishlab chiqarish uchun xom ashyo sifatida foydalanish imkoniyatlari to'g'risida.



[13] Kantsel Vladimir Alekseevich (RU) , Kantsel Anton Alekseevich (RU) , Lapshinov Sergey Alekseevich (RU) , Letyushov Aleksandr Aleksandrovich (RU) , Fomin Mixail Nikolaevich (RU) , Potapov Vladimir Aleksandrovich (RU) Patent(lar): "INTEGRA RU" mas'uliyati cheklangan jamiyati (RU) Ustuvorliklar

[14] ТРОФИМОВ Н.Н., ЧУГУЕВСКАЯ О.М., СЕЛЕВЦЕВ В.Ф., КАРТАШЕВА Г.Г., ТИТОВ А.А., КУЗОВНИКОВ В.Н., ИВАНОВ Н.А., МОРОЗОВ В.А., ОГОРОДНИКОВ А.А., ЛАЗУТКИН В.Н., НОВГОРОДОВ Д.С.

<https://www.elibrary.ru/item.asp?id=38088744>



ANGREN KONI KAOLIN XOMASHYOSINI QAYTA ISHLASH

IMKONIYATLARINI O`RGANISH

PhD, Asqarova Nilufar Musurmanovna

Toshkent Davlat Texnika Universiteti Olmaliq filiali

Elchiyeva Mohinur Dilshod qizi

Toshkent Davlat Texnika Universiteti Olmaliq filiali magistranti

Annotatsiya:

Alyuminiyning tanqisligi sharoitida past sifatlari alyuminiy xomashyolaridan alyuminiy va uning oksidli birikmalarini sof holda ajratib olish ancha murakkab hisoblanadi. Angren koni kaolin xomashyosi shunday xomashyo turiga mansubdir. Ushbu maqolada murakkab kaolin xomashyosini qayta ishlash va uning tarkibidan alyuminiy ajratib olish imkoniyatlari o`rganilgan. Qo'shimchalardan tozalash, sifatini yaxshilash va qayta ishlab qimmatli komponentlarni ajratib olish borasidagi bajarilgan ishlar tahlil qilingan.

Аннотация

В статье анализируется работа, проделанная по удалению каолина, одного из низкокачественных алюминиевых сырьевых материалов, от красящих добавок, повышению его качества и извлечению из вторичного сырья ценных компонентов в условиях острого дефицита алюминия.

Abstract

The article analyzes the work done to clean kaolin from coloring additives one of the low-quality aluminum raw materials to improve its quality and extract valuable components from recycling in the face of severe aluminum shortages.

Tayanch iboralar:

Kaolin, alyuminiy, alyuminiy oksid, kaolini boyitish, kalsinatsiya, ammoniy ftorid, kuydirish, sulfat kislota, nitrat kislota.

Основные фразы:

Каолин, алюминий, глинозем, обогащение каолином, прокаливание, фторид аммония, отжиг, серная кислота, азотная кислота

Basic phrases:



Kaolin, aluminum, alumina, kaolin enrichment, calcination, ammonium fluoride, annealing, sulfuric acid, nitric acid.

Alyuminiy sayyoramizdagi eng keng tarqalgan metall (Yer po`stining og`irlik jihatdan 8,8 % ini tashkil etadi) bo`lishiga qaramay, u yer yuzasida sof holda uchramaydi. Yuqori kimyoviy faollik tufayli alyuminiy atomlari boshqa moddalar bilan oson birikmalar hosil qiladi. Alyuminiyni olish jarayoni ancha murakkab jarayon va katta quvvatli elektr energiyasidan foydalanishga asoslangan [1].

Past sifatli, yuqori kremniyli alyuminiy xomashyolaridan bo`lgan kaolini qayta ishlab qimmatli komponentlarni ajratib olish hozirgi alyuminiy tanqisligi sharoitida muhim hisoblanadi. O`zbekistonda 2 ta yirik Kaolin koni aniqlangan: Toshkent viloyatidagi Angren va Samarqand viloyatidagi Alyans hududlarida [2]. Toshkent viloyati Angren hududida 0,45 mlrd tonna kulrang kaolin mavjud bo`lib uning tarkibida Al_2O_3 19-25 %, Fe_2O_3 1,5-4,5 %, SiO_2 40-58 % va boshqalar mavjud. Biroq, ularni qayta ishlash uchun samarali texnologiya mavjud emas.

Xorijiy mamlakatlarda kaolini kimyoviy boyitish usuli ya`ni reagentlar yordamida qo`shimchalardan tozalash keng tarqalgan bo`lib, Chexiyada kaolin suspenziyasini gidrosulfit bilan oqartirish usuli qo'llaniladi, bu kislorodsiz muhitga ega reaktorlarda gidrotsiklon bilan boyitilgandan keyin amalga oshiriladi [3]. AQSHda kaolini oqartirish gidrosulfit bilan sulfat kislotali muhitda olib boriladi. Mazkur ishda pH ko`rsatkichi 2,5 dan 4 gacha bo`lgan diapazonda 10 % H_2SO_4 yordamida sozlanadi. 50 °C da 20 daqiqa davomida jarayon amalga oshiriladi. Oqartiruvchi aralashma tarkibi 12 % NaBH_4 , 40 % NaOH va qolgan 48 % suvni o`z ichiga oladi. Kaolin gillari hamda borogidridning mol nisbati 7÷8 dan oshmaydi [4]. Gidrosulfit yoki bisulfit materialidan kaolini va boshqa mineralarning yorqinligini oshirish va rang beruvchi qo`shimchalarni kamaytirish uchun foydalaniladi [5]. Bundan tashqari ozon gazidan samarali oksidlovchi oqartiruvchi vosita sifatida kulrang kaolinlarni tozalashda foydalanilgan [6]. Bu kashfiyat katta tijoriy ahamiyatga ega, chunki kulrang kaolindan tayyorlangan shlamlar endi oksidlanish-qaytarilish ketma-ketligini talab qilmasdan va afzal qilingan permanganat oksidlovchisidan kelib chiqadigan zararli qo`shimcha mahsulotlarni qoldirmasdan samarali ravishda tozalashi mumkin. Yana bir afzalligi shundaki, ozon oqartirilgan kaolin mahsulotining yopishqoqligiga salbiy ta'sir



ko`rsatmaydi. Mazkur ishda pH ko`rsatkichi 7 dan 9 gacha bo`lgan qiymatlarda samarali ekanligi aniqlandi. Ozonning sarfi 1 t kaolin uchun 1,4-4,5 kg [7].

Kaolin tarkibidagi rang beruvchi modda temirni yo`qotish bo`yicha bir qator izlanishlar olib borilgan. Fe (III) oksidining yangi Fe (II) oksidi birikmalarini hosil qilish bilan qaytarilishini kuchaytirish orqali temirni olib tashlash mumkin [8]. Temirni asosiy alyuminiy nitrat bilan cho`ktirib, eritmadan temirning qoldiq miqdorini (gidroksid shaklida) sorbsiyalanadi [9]. Tojikistonda kaolini tozalashda quyidagi usuldan foydalanilgan: alyuminiy va temir gidroksidlarining qattiq cho`kmasini natriy va kaliy tuzlaridan filtrlash va eritmaning pH qiymatini o`zgartirish orqali eritma ichiga erimaydigan Fe(OH)_3 cho`kadi va NaAl(OH)_4 eritmaga o'tadi, karbonizatsiyadan so`ng Al_2O_3 va H_2O ga parchalanadi. Olingan alumina alyuminiy metall ishlab chiqarish uchun xomashyo sifatida ishlatilishi mumkin [10]. Sharqiy Sibir konlarining kaolin gillari xlorid kislota bilan qayta ishlanadi [11]. Germaniyada qog'oz sanoatida qo'llaniladigan kaolini oqartirishda temir birikmalari bo`lgan kaolinga natriy sulfat bilan, hosil bo`lgan temir tuzlariga esa fosfor kislotasi bilan ishlov beriladi. Ushbu jarayonning afzalligi shundaki, an'anaviy kaolin oqartirish jarayonlaridagi kabi neytrallash talab etilmaydi.

Kaolin gillari va siallitlarni xlorlash va sinterlash usullari bilan qayta ishlash bo`yicha olib borilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi shartlarni tavsiya qilish mumkin: davomiyligi: 20 daqiqa, harorat 800-850 °C, xlor sarfi 30 ml/min [12].

Angren kaolinini qayta ishlash bilan bog`liq bir qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Kaolin gillari kamida 1 soat davomida 650-700 °C haroratda kuydirilib 60 % konsentratsiyali sulfat kislota bilan yuvish orqali 97,1 % li alyuminiy sulfat olish imkonii ko`rib chiqilgan [13]. 650-700 °C haroratda kuydirilgan Angren konining kaolin gillarini 30 % li nitrat kislota bilan aluminiy oksidi olish, avtoklavda yuvish jarayonlarini qo'llash bo`yicha tadqiqotlar amalga oshirilgan. Alyuminiy olish darajasi 93,73 % [14]. Alyuminiy nitrat olish bo`yicha tadqiqotlarda nitrat kislotaning kontsentratsiyasi 40 %, jarayonning davomiyligi 100-110 °C haroratda 1 soatdan kam emas. Alyuminiyni olish darajasi 91,48 %, temir 18,08 % [15]. Bundan tashqari 40 % li nitrat kislota eritmasida 600-700 °C da 2 soat davomida kuydirish orqali 90,94-93,29 % li alyuminiy oksidi olish bo`yicha ham izlanishlar olib borilgan [16].



Yuqorida bajarilgan ishlarni inobatga olgan holda, Angren kaolinidan kerakli komponentlarni ajratib olishda kimyoviy-reagentli usullardan foydalanish maqsadga muvofiq. Jumladan, NH_4HF_2 va NH_4F ning suvli eritmalarida kaolin kontsentratlarini boyitishning ftoridli gidrokimyoviy usuli [17], NaOH yordamida 450-500 °C da kuydirish, isitilgan suvda tanlab eritish, filtrlash va cho`kmaga tushgan Al(OH)_3 ni 550-600 °C da kuydirish orqali Al_2O_3 olish usullarini amaliyotga qo`llash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Закиров М.З., Гончаренко А.И. «Каолин Ангренского месторождения и пути их использования». В кн.:Генезис и ресурсы каолинов и огнеупорных глин 1990.

2. Жуманов Ю.К. Физико-химическое исследование каолинов Зарафшанского региона 25.10.2018 № 10 (55) Химическая технология

// Universum: технические науки : электрон. научн. журн. 2018. № 10 (55). RL:
<https://7universum.com/ru/tech/archive/item/6489>

3. СПОСОБ ОТБЕЛИВАНИЯ КАОЛИНА aspx © ФГБОУ ВО «РЭУ им. Г.В. Плеханова» <https://www.rea.ru/ru/org/managements/orgnirupr/Pages/2582164>.

4.Qiang Huang, Goda Rangamannar A method of bleaching kaolin and other minerals using sodium dithionite. GB2441431A United Kingdom

<https://patents.google.com/patent/GB2441431A/en>

5.Maurice Lynwood Atkinson, Mary Elizabeth Methods for bleaching kaolin clay and other minerals and bleached products obtained by the method EP1146089A1European Patent Office <https://patents.google.com/patent/EP1146089A1/en>

6. George E, GantGerald Smith Method for bleaching kaolin clay. US5753029A United States<https://patents.google.com/patent/US5753029A/en>

7. Куралова, М. К., & Аскарова, Н. М. (2021, December). ИННОВАЦИОННЫЙ ПОДХОД ВОЗМОЖНОСТИ ИЗВЛЕЧЕНИЯ МЕДИ И БЛАГОРОДНЫХ МЕТАЛЛОВ ИЗ КОНВЕРТЕРНЫХ ШЛАКОВ. In Здравствуйте, уважаемые участники международной научной и научно-технической конференции, дорогие гости! (p. 406).

8. Tom A Cecil, Daniel A Jacobs - Method for bleaching gray kaolin clay US3616900A <https://patents.google.com/patent/US3616900A/en>



Платов Юрий Тихонович, Платова Раиса Абдулгафаровна RU 2 582 164 С1

https://www.fips.ru/registers-doc-view/fips_servlet

9. Вайтнер, Виталий Владимирович Исследование азотнокислотной переработки алюмосиликатов для получения оксида алюминия год 2004 специальность ВАК РФ 05.16.07 <https://tehnosfera.com/issledovanie-azotnokislotnoy-pererabotki-alyumosilikatov-dlya-polucheniya-oksida-alyuminiya>

10. Маматов Э.Д., Хомиди А.К., Тагоев А.П., Баротов М.А. ПЕРЕРАБОТКА АЛЮМИНИЙСОДЕРЖИЩИХ РУД С ПРИМЕНЕНИЕМ ОТХОДОВ ПРОИЗВОДСТВА
Опубликовано в 2015, Выпуск Декабрь 2015, ХИМИЧЕСКИЕ НАУКИ Страницы: 53-
57 <https://research-journal.org/chemistry/pererabotka-alyuminij-soderzhshix-rud-s-primeneniem-otkhodov-proizvodstva/>

11. Vyacheslav I, Pak, Sergey S, Kirov, Alexander A, Gromov. Obtaining Alumina from Kaolin Clay via Aluminum Chloride, November 2019 Materials 12(23):3938 DOI:10.3390/ma12233938 <https://www.ncbi.nlm.nih.gov/pmc/articles/PMC6926497/>

12. Маматов Эргаш Джумаевич ПЕРЕРАБОТКА КАОЛИНОВЫХ ГЛИН И СИАЛЛИТОВ ХЛОРНЫМ МЕТОДОМ 2002 02.00.04 КОД ВАК РФ
<https://www.dissercat.com/content/pererabotka-kaolinovykh-glin-i-siallitov-khlornym-metodom>

13. Шамшидинов И.Т. Мамаджанов З.Н. Исследование процесса выщелачивания алюминия из каолиновых глин Ангренского месторождения // Universum: технические науки : электрон. научн. журн. 2018. № 3 (48). <https://7universum.com/ru/tech/archive/item/5642>

14. Мирзакулов Х.Ч. Бобокулова О.С. Мавлянова М.Н. Кенжаев М.Э. Исследование процесса азотнокислотного выщелачивания алюминия из каолиновых глин 25.09.2018 478 <https://7universum.com/ru/tech/archive/item/6375>

15. Мирзакулов Х.Ч. Кенжаев М.Э. Аманова Д.У. Бозорова М.И. Исследование процесса получения нитрата алюминия из каолинов Ангренского месторождения 25.07.2018 691 <https://7universum.com/ru/tech/archive/item/6171>



16. Мирзакулов Х.Ч. Кенжаев М.Э. Исламова М.Ш. Исследование влияния процесса прокалки на извлечение окиси алюминия из Ангренских каолинов 25.04.2017 1580 № 4 (37) <https://7universum.com/ru/tech/archive/item/4678>

17. Римкевич В.С. Еранская Т.Ю. Леонтьев М.А. Гиренко И.В. РАЗРАБОТКА ФТОРИДНОГО ГИДРОХИМИЧЕСКОГО МЕТОДА ОБОГАЩЕНИЯ КАОЛИНОВЫХ КОНЦЕНТРАТОВ Фундаментальные исследования. – 2014. – № 9 (часть 9) – С. 2023-2027

<https://fundamental-research.ru/ru/article/view?id=35182>



BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA CHIROYLI YOZUV MALAKALARINI SHAKLLANTIRISH

Qodirova La'li Sagdullayevna

Xalqaro Islom akademiyasi qoshidagi

“Ziyo-Zukko umumta’lim maktabi” NTM

Boshlang’ich sinf o’qituvchisi

Annotatsiya: Boshlang’ich sinf o’quvchilarida chiroyli yozuv malakalarini shakllantirishda zamonaviy metodlardan foydalanishning pedagogik imkoniyatlarini yoritish va uning amaliy samaradorligini ta’minlashga asoslangan ilmiy tavsiyalarni ishlab chiqish xususida

Kalit so’zlar: boshlang’ich ta’lim, chiroyli yozuv, ta’lim samaradorligi, kreativlik, pedagogik mahorat, ko’nikma.

O’zbekiston Respublikasining ta’lim sohasini isloh qilishdagi sa’y harakatlarining biri – bu pedagog kadrlarning zamon talablariga hamnafas tarzda faoliyat yuritishlari, har tomonlama rivojlangan komil shaxsnar tarbiyalashga doir chuqur bilim, pedagogik mahorat, ko’nikma, malaka va madaniyatga ega bo’lishlarini talab etmoqda. Bu esa o’z-o’zidan ta’lim va tarbiya ishlarining qonuniyatlarini o’rganuvchi pedagogika faniga «kreativlik» degan tushunchani olib kirdi. Ayniqsa, umum ta’lim maktablarida o’qituvchi kadrlarning kreativligini rivojlantirishga bo’lgan ijtimoiy buyurtma vujudga kelmoqdaki, bu borada ilmiy pedagogik izlanishlar olib borish talab etiladi.

Boshlang’ich ta’lim mazkur yo‘nalishda ilk poydevordir. Bu poydevorning tamal toshi esa boshlang’ich sinf o’quvchilarini husnixatga o’rgatish desak, mubolag’a bo‘lmas. Husnixat bilan yozuvga o’rgatish usullari o’quvchida aniq, chiroyli va tez yozish imkonini hosil qilishi lozim. Bu kabi vazifalarni amalga oshirish uchun dastur mazmuni, talablari, o’qitish usullari, yozuvga o’rgatishning gigiyenik shartlarini, o’quvchilarning yozuvidagi individual kamchiliklarini tahlil qilish, kamchiliklarning yuzaga kelish sabablarini aniqlash va tuzatish usullari ishlab chiqilishi zarur.

«Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da ta’kidlanganidek, birinchidah, ta’lim uzluksizligini yangi asosga qurish. Ikkinchidan, bilim oluvchi, har qanday intellektual yuklamaga bardosh beruvchi robot shaklidagi shaxsnar shakllantirish davri orta qoldi. Uchinchidan, ta’lim ko‘p bosqichli, turlicha maqsadga yo‘naltirilganligi bilan oldingilaridan keskin farq qilishi lozim. To‘rtinchidan, uzluksiz ta’lim tizimi barkamol insonni kamol toptirishga xizmat qilishi joiz. Davlat hujjatlarida shaxs asosiy figuraga aylangan bo‘lib, u ta’lim tizimining teng huquqli sub’ektiga aylanishi ko‘zda tutiladi.

Ta’limning uzuluksizligini ta’minlashda boshlang’ich ta’lim bilan maktabgacha ta’lim tizimlarining o’rtasidagi aloqadorligini aniqlash hamda mazkur aloqadorlikni mustahkamlash zarur hisoblanadi. Aloqadorlik psixologik ko‘rinishda amalga oshadigan



bo‘lsa, tabiiyki, turli xil psixologik jarayonda, holatlar va tuzilmalarning maktabgacha va boshlang‘ich maktab yoshidagi davrlaridagi holatini o‘rganish zarurati tug‘iladi. Sababi-mazkur psixik holatlar bu ikki davrni o‘zaro bog‘lab turadi. Rivojlanish nuqtai nazaridan qaraganda shuni ta’kidlash joizki, psixik jarayonlar, holatlar va tuzulmalar ikki xil yosh davrida, ikki xil sifatda aniqrog‘i boshlang‘ich maktab davrida yanada rivojlangan ko‘rinishda namoyon bo‘ladi.

Boshlang‘ich sinflarda fanlarni yetarli darajada o‘zlashtirmagan o‘quvchi yuqori sinflarda ham fan asoslarini puxta egallab ololmaydi. Shunday ekan, biz boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining oldida juda mas’uliyatli vazifa turadi. Chunki inson shaxsining shakllanishi ilk maktab yoshiga to‘g‘ri keladi. Bolaning boshlang‘ich sinfdagi faoliyatini yo‘lga qo‘yishda uning savodini chiqarish muhim ish sanaladi.

O‘quvchilarda ilk o‘qish va yozish malakalarini shakllantirish savod o‘rgatish jarayonining asosiy vazifasi hisoblanadi. Bu davrda o‘quvchilarda chiroyli yozuv malakalarini shakllantirishning o‘ziga xos omillari mavjud.

O‘quvchilarning chiroyli yozuv malakalarini hosil qilish uchun birinchi navbatda diqqat, sezgi, idrok etish va xotira kabi psixofiziologik funksiyalar ishtirok etganligini ko‘ramiz. Psixik jarayonlar va inson psixikasi xususiyatlari orasida diqqat faoliyati alohida o‘rin tutadi. U ongning hamma shakllarida ishtirok etadi. Diqqat jismoniy harakat talab qiladigan , ishni yaxshi bajarishga yordam beradigan omillardan biridir. Bilimni o‘zlashtirish uchun o‘quv materialini idrok etish talab qilinadi. Yozish jarayonida ko‘rish va eshitish sezgilari idrok qilinadi.

Yozuv jarayoni turli yozuv qurollari(ruchka, qalam, bo‘r)orqali amalga oshiriladi va qaysi yozuv qurolidan foydalanishiga qarab qo‘l harakatlari shunga moslashtiriladi.

Chiroyli yozuvga o‘rgatishda , birinchi navbatda , quyidagi malakalarni singdirib borish talab etiladi:

1. Yozuv qurollaridan to‘g‘ri foydalanish
2. Parta ustida daftarni to‘g‘ri qo‘yish
3. Yozayotganda gavdani to‘g‘ri tutish va tirsaklarni to‘g‘ri harakat qildirish
4. O‘z xatini berilgan namuna bilan taqqoslashga o‘rgatish.
5. Tovushni bosma harfga, bosma harflarni esa yozma shaklga aylantirishga o‘rgatish.
6. Harflar shaklini idrok etishga (yozuvni qayerdan boshlash, qayerda tugatish, o‘ngga, chapga, burilish, bog‘lash va h. k)o‘rgatish.
7. Harflarni bir-biriga bog‘lab yozishga o‘rgatish.
8. Harflarni bir xil balandlikda va kenglikda tekis yozishga o‘rgatish.
9. Daftar chizig‘idagi qatorlarni to‘g‘ri to‘ldirish sarlavha, oy va kunlarni to‘g‘ri yozish.
10. Harflarning 75 daraja qiyaligini to‘g‘ri saqlash.

Demak, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini chiroyli yozuvga o‘rgatishdan oldin quyidagi malakalarni berish lozim.



1. Yozuv texnikasi, ya’ni yozuvning turli to’g’ri yozish usullaridan foydalanish.
2. Harflarning shaklini to’g’ri ifodalash, ya’ni grafik malakalarini egallash.
3. Yozuv vaqtida harflarning shakli bilan bir qatorda uning qanday tovush bildirishini ham bilish, ya’ni imloga oid malakalarini ham egallash.

Chiroyli yozuv qoidalarini yaxshi bilish yozuv malakasining shakllanishiga yordam beradi.

Masalan, 1-sinfda dastlab to’g’ri o’tirish, ruchkani to’g’ri ushlash, daftarni to’g’ri holatda qo’yish kabi talablar asosida so’zlarda harflarning balandligini va qiyaligini bir xilda saqlash, so’zlarda harf unsurlari va ularning oralig’ini bir xil uzoqlikda chamlab yozish qoidalari kelib chiqadi. 2-sinfdan boshlab chiroyli yozuv malakasiga o’rgatishda yozuv texnikasiga oid bo’lgan kichik va bosh harflarni bir xil balandlikda chamlab yozish, 4-5 harfdan iborat so’zlarni qo’l harakatini uzmasdan bog’lab yozish, tez va toza yozish kabi qoidalari talab etiladi. Chiroyli yozuv deganda biz toza va aniq chiziqlar bo’yicha, husnixat namunalarida ko’rsatilganidek yozilgan yozuvni tushunamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. M. Gulomov, K. Tursunova, D. Po’latova “Chiroyli yozuv malakalarini shakllantirish” Uslubiy qo’llanma Toshkent “Turon Iqbol 2013.
2. G’ulomovM. ”Husnixat” 1-sinflar uchun-T. :O’zbekiston 2002.
3. G’ulomov M. ”Husnixat”2-sinflar uchun-T. :Cho’lpon 2003.
4. Munavvarxon Yo’ldosheva. “O’quvchi yozushi nega xunuklashadi?” Ma’rifat gazetasi 2018 yil



Alimbayev Taxir Ruslan uli

Tashkent University of Information Technologies Nukus branch named after Muhammad Al-Khwarizmi, Nukus, 230113, Uzbekistan.

taxis97@gmail.com

Introduction

In recent times, unwanted commercial bulk emails called spam has become a huge problem on the internet. The person sending the spam messages is referred to as the spammer. Such a person gathers email addresses from different websites, chatrooms, and viruses [1]. Spam prevents the user from making full and good use of time, storage capacity and network bandwidth. The huge volume of spam mails flowing through the computer networks have destructive effects on the memory space of email servers, communication bandwidth, CPU power and user time [2].

Content Based Filtering Technique: Content based filtering is usually used to create automatic filtering rules and to classify emails using machine learning approaches, such as Naïve Bayesian classification, Support Vector Machine, K Nearest Neighbor, Neural Networks.

Case Base Spam Filtering Method: Case base or sample base filtering is one of the popular spam filtering methods. Firstly, all emails both non-spam and spam emails are extracted from each user's email using collection model.

Heuristic or Rule Based Spam Filtering Technique: This approach uses already created rules or heuristics to assess a huge number of patterns which are usually regular expressions against a chosen message. Several similar patterns increase the score of a message. In contrast, it deducts from the score if any of the patterns did not correspond.

Previous Likeness Based Spam Filtering Technique: This approach uses memory-based, or instance-based, machine learning methods to classify incoming emails based to their resemblance to stored examples (e.g. training emails).

Adaptive Spam Filtering Technique: The method detects and filters spam by grouping them into different classes. It divides an email corpus into various groups, each group has an emblematic text.

References

1. M. Awad, M. Foqaha, Email spam classification using hybrid approach of RBF neural network and particle swarm optimization, Int. J. Netw. Secur. Appl. 8 (4) (2016).
2. D.M. Fonseca, O.H. Fazzion, E. Cunha, I. Las-Casas, P.D. Guedes, W. Meira, M. Chaves, Measuring characterizing, and avoiding spam traffic costs, IEEE Int. Comp. 99 (2016).



1	Tibbiyot terminologiyasida polifunksionallik va polisemiya hodisalari Fozilova Nargiza Nishonboyevna	4
2	Rahmonova Hojibuvi Rizojon qizi Musiqani yoshlar ongiga singdirishga zamonaviy texnologiyalarning o‘rni va ahamiyati	8
3	THE ROLE OF THE ANALYSIS OF THE FINANCIAL CONDITION IN THE DEVELOPMENT OF THE FINANCIAL POLICY OF THE ENTERPRISE Akhmedov Khojiakbar	12
4	METHODS FOR FINANCIAL ANALYSIS OF ENTERPRISES Akhmedov Khojiakbar	15
5	The importance of tutor in Higher Education Salaeva Muhabbat Saburovna Akimova Nodira Rajabboevna	17
6	The role of tutoring in higher education and improving the student’s academic success Salaeva Muhabbat Saburovna Akimova Nodira Rajabboevna	20
7	КАФОЛАТ СУФУРТА КОМПАНИЯСИ АКЦИЯДОРЛИК ЖАМИЯТИ МОЛИЯВИЙ БАРҚАРОРЛИК КҮРСАТКИЧЛАРИ ТАҲЛИЛИ Носиров Жасур Турсунпулотович	23
8	КАФОЛАТ СУФУРТА КОМПАНИЯСИ» АКЦИЯДОРЛИК ЖАМИЯТИ МОЛИЯВИЙ БАРҚАРОРЛИК ҲОЛАТИ ТАҲЛИЛИ Носиров Жасур Турсунпулотович	28
9	TABIAT BILAN TANISHTIRISH METODIKASI FANIDA EKOLOGIK METODLARNING AHAMIYATI VA DOLZARBLIGI Aziza Kobilova	32
10	YOSHLARGA OID DAVLAT SIYOSATI Тоштемирова Мафтуна Толибжоновна	35
11	ИННОВАЦИОН ФАОЛИЯТНИ СОЛИҚЛАР ВОСИТАСИДА РАҒБАТЛАНТИРИШНИНГ ХОРИЖ ТАЖРИБАСИ Эшниязова Юлдуз Юлдашбоевна Рузметов Баҳтияр	38
12	ИҚТИСОДИЁТНИ ТАРТИБГА СОЛИШДА СОЛИҚЛАРНИНГ ОБЪЕКТИВ ЗАРУРЛИГИ ҲАМДА МАМЛАКАТ ИҚТИСОДИЁТИ РИВОЖИДА ТУТГАН ЎРНИ Эшниязова Юлдуз Юлдашбоевна Рузметов Баҳтияр	42
13	ЎЗБЕК ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЯСИДА АНТИҚАРҒИШ Закирова Дилрабо Хайдаровна	49
14	SANOAT KORXONALARIDA ISHLOVCHI XODIMLARNI NOQULAY TASHQI MUHIT TA`SIRIDAN SAQLOVCHI MAXSUS POYABZALLARDA PIEZO ELEMENTLARNI QO’LLASH IMKONIYATLARI TAHLILI Yu.A. Maxmudov	57
15	ЎЗБЕКИСТОНДА БЮДЖЕТ МАБЛАҒЛАРИ САРФЛАНИШИДА ФУҚАРОЛАР ИШТИРОКИ Хамидов Хабибулло Ҳикматулла ўғли	60
16	ЎЗБЕКИСТОН-ФУҚАРОЛАР ИШТИРКИДА БЮДЖЕТ МАБЛАҒЛАРИНИ САРФЛАШДА ЯНГИ БОСҚИЧДА Хамидов Хабибулло Ҳикматулла ўғли	69
17	Boytish fabrikalari chiqindilarini qayta ishlash texnologiyalarini tadbiq qilish Abdurahmonov.S.A Sayfullayeva Dilshoda Abduhoshim qizi	74



18	ANGREN KONI KAOLIN XOMASHYOSINI QAYTA ISHLASH IMKONIYATLARINI O`RGANISH Asqarova Nilufar Musurmanovna Elchiyeva Mohinur Dilshod qizi	82
19	BOSHLANG`ICH SINF O`QUVCHILARIDA CHIROYLI YOZUV MALAKALARINI SHAKLLANTIRISH Qodirova La'li Sagdullayevna	88
20	MACHINE LEARNING FOR EMAIL SPAM FILTERING METHODS Alimbayev Taxir Ruslan uli	91